*Annotatsiya:* Ushbu maqola orqali o'zbek tilining,avvalo,milliy til ekanligini,bu tilning ko'pgina buyuk daholar tomonidan fonetik,morfologik,sintaktik va boshqa qoidalar orqali mukammal darajada o'rganilib,tasnif etilganini ko'rish mumkin.Shuningdek,o'zbek tilining rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot beriladi.

*Kalit so'z:* O'zbek tili tarixi, maqola, adabiy manba, telegram, instagram, facebook, snapcha, allomalar fikri

Ma'lumki,hozirgi o'zbek adabiy tili ko'p asrlik tarixga ega.Shunga ko'ra,bu til qadimiy til deyiladi.O'zbek,ya'ni turkiy tilga oid dastlabki qo'lyozma manba-O'rxun-Enasoy yozuvlari VI - VII asrlarga oid bo'lsa,VIII asrda tilimizga arab tilining ta'siri istilo sabab kuchli bo'ldi.Ana shunday murakkab vaziyatda ham o'zbek tili o'z ichki imkoniyatlarini boyitsa-boyitdiki,yo'q bo'lib ketmadi.Aksincha,ijodkorlar tomonidan so'z boyligi o'rganilib, leksik, fonetik, grammatik qurilishi jihatidan tasnif etib asoslab berildi.X-XI asrlarda M.Koshg'ariy („Devonu lug'at at- turk”),Yusuf Xos Hojib („Qutadg'u bilig”), A.Yugnakiy („Hibat ul- haqoyiq”) kabi buyuk allomalar til nazariyasi sohasida o'zlarining nechog'lik „bunyodkor”ekanliklarini namoyon etishdi.O'zbek (turkiy) tilining birliklari,qadr-qimmatlari XI-XV asrlarda yanada yuksaldi desak mubolag'a bo'lmaydi.O'zbek mumtoz adabiyot vakillari sanalmish Lutfiy,Atoiy,Sakkokiy,Xorazmiy kabi shoirlar tomonidan yaratilgan go'zal asarlar buning yorqin namunasidir.Chunki bu ijodkorlar o'zbek (turkiy)tilida ijod qilib,uni yanada boyitdilar.

O'zbek tili haqida gap ketar ekan,bu tilning „me'mori” bo'lmish A.Navoiy ijodiga to'xtalmaslikning iloji yo'q,albatta.A.Navoiyning „Xamsa”, „Xazoyin ul-maoniy” asarlari bilan XV asrda ona tilimizning gullab-yashnashiga ulkan hissa qo'shgan bo'lsa, „Muhokamat ul-lug'atayn”, „Majolis un-nafois” kabi asarlari bilan

milliy tilning adabiy-badiiy jihatdan nozik-nafisligini ko'rsatib bergan bo'lsa, ilmiy-tanqidiy jihatdan yorqin asoslab bergan. O'zbek (turkiy) tilini fors-tojik tili bilan solishtirib, uning nihoyatda boyligini mazmun tahlillari va yasovchilarning ma'no bo'yoqdorligi orqali tahlil qilib bergan. Hatto bu til bilan faxrlanishini quyidagi satrlarda bayon etgan:

Chun topdim ul kalom ichra kamol,  
Turk alfozi bila surdim maqol,  
Turk nazmida chu men tortib alam,  
Ayladim ul mamlakatni yakqalam .

XX asrlarga kelib esa o'zbek tili muayyan me'yorga, qolipga solinib, o'zbek xalqining barcha madaniy ehtiyoji va talablariga xizmat qiladigan til shakliga keldi. Darsliklar, qo'llanmalar yaratila boshlandi. Hamza „Qiroat kitobi“, „Yengil adabiyot“, kabi darslik, majmualar yaratdi. Fitrat „Etimologiya“, „Nahv: O'zbek tili qoidalari to'g'risida tajriba“ kabi kitoblari bilan tilshunosligimiz merosini boyitdi. „Tilimiz“ maqolasida esa o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeini ko'tarish, soflashtirish, shuningdek, uni tashqi ta'sirdan muhofaza etish joizligi ta'kidlanadi. Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek tili Navoiy-yu Boburlar, Qodiriy-yu Cho'lponlar, Oybek-u Qahhorlar, Erkin-u Abdullolar tili. Buyuk mutafakkir bobomiz A. Avloniy yozganidek: „Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur“.

Bugun dunyoda yetti mingga yaqin til bo'lsa, ulardan atigi ikki yuzga yaqini davlat tili maqomiga ega. Davlat maqomiga ega shu ikki yuzta tilning ichida o'zbek tilining borligi millatning faxri, g'ururidir. Dunyoda mavjud yetti mingga yaqin tildan bir ming to'rt yuztasining yo'qolib ketish xavfi borligini e'tiborga oladigan bo'lsak, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning nufuzli tashkilot BMTda sof o'zbek tilida so'zlagan nutqi milliy tilni dunyo tillari safidan joy olganligini ko'ramiz:

Onajon tilim bu-osmon tilim-bu,  
Har so'zi surati Rahmon tilim-bu.  
Navoiy she'r ichra sulton tilim-bu,  
BMTda yangrar Navoiy tilim.

(Zulfiya Mo'minova „BMTda yangrar Navoiy tili“ she'ridan.)

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.,,Hozirgi o‘zbek adabiy tili ’’ Toshkent 1975.
- 2.,,Til va adabiyot ta’limi’’ jurnali.Toshkent 2006.
- 3.ziyonet.uz sayti
- 4.ishonch.uz

**EFFECTS OF PERFUME ON THE HUMAN BODY****М.М.Акбарова** - teacher**В.Г.Мамазокирова, Х.А.Одилжонов** - female students

Andijan State University

***Annotation:** This article provides information on aromatherapy, the effect of perfume smells on human health and mood, classification of smells depending on their effect on the human body.*

***Keywords:** aromatherapy, essential oils, perfume, musk, barn, fragrance classification.*

From time immemorial, aromatherapy has been used to treat many ailments and increase overall vitality. With the help of essential oils got rid of various diseases. Hippocrates, Galen, and other well-known healers have resorted to such methods. Since the 1980s, the study of how new odors affect physiology and health has been developing in the field of aromatherapy.

Smells are related to our memories and emotions. With the help of this or that odor, chemical processes begin in the human brain. It in turn commands the production of certain substances and hormones throughout the body. Therefore, with the help of odors can change the state of the nervous system and the biochemical composition of organs. The science of aromatherapy is based on this “smell-reaction” chain. In this regard, one should choose fragrant oils very carefully. Because choosing the “wrong” scent can have a negative impact on a person’s body, mood, or psychological state.

At present, the treatment of diseases using plant odors is carried out by Professor of Baku Health Hasanov Hasanov Sh.G. is carried out on the basis of the method developed by. In this way, using the original scents of bay, rosemary, geranium, they carry out treatment and achieve good results. Essential oils extracted from bay, rosemary, geranium are useful for the body, especially for diseases of the cardiovascular system, various neuroses, insomnia. The results of the treatment showed that the smells have a strong effect on the body's adaptive forces and their importance in maintaining human health.

Every smell affects a person to a certain extent. This action occurs, on the one hand, by direct physiological effects on the body, and, on the other hand, by the associations they cause. For example, some odors irritate the nervous system, while others are calming. In general, odors can be divided into three conditional groups: pleasant, unpleasant, and indifferent.

Pleasant scent - we want to smell for as long as possible. It gives us pleasure. But there are a lot of pleasant smells for some and unpleasant smells for others. Most often, some like the smell of tar, others like the smell of camphor or onion, garlic, anchovies and cheese, the smell of hydrogen sulfide in cabbage.

The smell of cheeses and some other similar products given in other perfume mixes is considered "unpleasant". For example, the rotten smell of Roquefort cheeses produced in France is considered unpleasant. Not only is the smell of accepted musk considered unpleasant, but among many people and peoples it is considered pleasant. Many, for example, do not tolerate the smell of roses. Thus, the psychological definition of odor quality is very relative.

Indifferent odors are odors we don't notice. We became so used to them that we stopped feeling them. For example, the smell of ordinary air, home, perfume. Sometimes the notion of indifference is so great that it is possible to remain indifferent even to the over-saturated air of laboratories.

The nose is a very delicate instrument. The mucous layer that covers it is one of the most sensitive areas of the body. Odor receptors are associated with the nervous system. When fragrant substances are inhaled, the irritating energy of the receptors is converted into nerve excitation energy that is transmitted to the central nervous system via nerve fibers. The brain begins to respond synchronously to the impulses of the most sensitive receptors, and through it the whole body is affected. Impulses coming to the organs through the nerve fibers change the state of these organs, exciting, intensifying or weakening their activity. The biological activity of the body and its protection changes.

The role of fragrances in nature is enormous. Vapors of essential oils emitted by leaves or flowers surround them on all sides. Leaves from overheating during the day and cooling at night, as well as in dry weather

Currently, synthetic fragrances of musk are used in the development of perfumes. They form the basis of a collection of perfumes with many new scents for men and women. These indicators should be taken into account when choosing perfumes. In this way we can prevent or treat diseases.

References:

1. Askarov.I.R. Commodity chemistr. Tash.-2019.
2. Liberles SD, Buck LB (2006). "The second class of chemosensory receptors in the olfactory epithelium". Nature. **442** (7103):

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL DARSLARNI QO'LLASH ORQALI SAMARADORLIKKA ERISHISH**

**Shermatova Dilsora**

Sirdaryo tuman 3-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Haqiqiy ta'lim odamni odamiylikka tayyorlashdir*

*N.I.Pirogov*

Boshlang'ich ta'lim uchun zarur va ustuvor yo'nalishlardan biri ta'lim mazmunining yangilanishi, darsni ilg'or tajriba va g'oyalarga tayanib, amonaviylashtirilgan, takomillashtirilgan hamda ilmiy-pedagogik texnologiyalar asosida o'tish zaruriyatini keltirib chiqardi. Chunki dars ta'lim-tarbiya berishning asosiy o'zagidir.

O'quvchining o'quv fanlarini chuqur o'rganib borishi davomida uning bilimi mustahkamlanadi, savodxonligi oshib boradi. Ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich sinf o'quvchilarini sog'lom avlod qilib voyaga yetkazishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar muhim vosita hisoblanadi. Dars ta'limning asosiy shakli ekan, o'qituvchi shu jarayon o'z shogirdlarining ongli va faol bo'lishi, jamiyatning vatanparvar, adolatparvar, mehnatsevar va fidoiyi kishilar bo'lib ulg'ayishlari uchun mustahkam zamin tayyorlashi lozim. Bu jarayon o'quv-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ta'minlash uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida quyidagilarni amalda qo'llashni taqozo etadi:

- Darslarda interfaol usullardan keng foydalanish;
- Dars jarayonida didaktik materiallar bilan ishlash;
- Ommaviy axborot texnologiyalaridan uzluksiz foydalanish;
- O'quvchilarni innovatsion faoliyatga mustaqil tayyorlash;
- Fanlarni fanlararo integratsiyalash;

Demak, bugungi interfaol darslarni tashkil qilish uchun interaktiv metodlarni amalda joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirishda ma'lum maqsadga erishishda, o'quvchilarning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda interfaol darslarni tashkil etish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Bolaning ongi va tafakkuri shakllanib

kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, interfaol darslarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiiq etishi, ta'limning yangi-yangi usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan foydalana olishi juda muhimdir.

Interfaol darslarni tashkil etish boshlang'ich sinf uchun bilim, ko'nikma, malakani qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, o'qituvchining tajribasi oshib borishida ko'mak beradi. Boshlang'ich sinflarda interfaol darslarni tashkil etish o'z o'rnida juda samarali. Masalan, darsda ko'zlangan maqsadga erishishda, o'quvchilar diqqatini bir joyga jamlashda, ularni darsga qiziqishini oshirish va faollikka undashda katta ahamiyat kasb etadi. Bunda biz "Muzyorar" metodidan yoki mavzuga oid birorta so'zdan foydalanishimiz mumkin. Misol uchun uc burchakni olib qaraylik. Biz yashiyotgan olamda nimlar uc burchak yoki to'rt burchak shaklda? desak ular birin ketin javob bera boshlaydi. Uylar, mashinalar, tomlarning tepasi kabi javoblarni berishi mumkin. Biz bu mashqlar orqali o'quvchilarni diqqatini jamlash bilan birga atrof-muhitga bo'lgan munosabatini ham bilib olamiz.

O'qituvchi dars jarayonlarida uchraydigan muhim muammolaridan biri bu o'quvchilar diqqatini darsga jalb etish va uni boshqara olishdir. Shunday ekan, o'qituvchi bu muammodan mohirona chiqib ketishi va o'quvchilar e'tiborini darsga qarata olishi uchun doimo samara berib kelgan interfaol darslarni tashkil etish lozim. Interfaol darslarni tashkil etish boshlang'ich sinflar uchun qanday vazifani bajaradi?

Interfaol darslarni tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasida bir nechta xususiyatlarga ega. Ularga alohida e'tibor qaratamiz. Interfaol darslarni tashkil etishning boshlang'ich sinf o'quvchilarida motiv(qiziqish) hosil qilishdagi o'rni beqiyos. Interfaol metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundur. Ular orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilimlarni o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi. Bolaning shaxsi shakllanadi, munosabatga kirishishi o'sib boradi. Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida inson faoliyatining shakllanishi rivojlanib, mehnatga layoqati va mas'uliyati shakllanib boradi. O'quvchilarni o'quv materialiga qiziqtirishning birdan-bir yo'li interaktiv metodlar va didaktik o'yinlardan


foydalanishdir. Interfaol darslarni tashkil etishda interaktiv metodlardan samarali foydalanish lozim. Interaktiv metodlarning boshlang'ich sinf darslarida qo'llanishini bir necha misollar yordamida 1-4-sinflardan ayrim namunalar keltirish orqali ko'rib o'tamiz:

Masalan, 1-sinf Alifbo darslarida bir nechta tovushlarni o'rgangandan keyin "Charxpalak" usulini qo'llash mumkin.

**Jadvalda so'zlar aralash tartibda berilgan. Ushbu so'zlar qaysi ustunga tegishli bo'lsa tartib bilan joylashtiring.**

Tovushlarga oid so'zlar	A	B	D	E	F	G
Daraxt, archa, etik, gul, bodom, elak, gilam, eshik, favvora, do`ppi						

Yoki ularning rasmlarini joylashtirishimiz mumkin. Masalan:

Tovushlarga oid so'zlar	A	B	D	E	F	G
						

Daraxt, archa, etik, gul, bodom, elak, gilam, eshik, favvora, do`ppi kabi rasm yoki so'zlar bo'lishi mumkin. Bunda o`quvchilar harbi harf tagiga so'zlarni yoki rasmlarni joylashtirishga harakat qiladilar va o`zlari ham ijodkorlik sari intilib boradi.

Charxpalak usulini 1-sinf Alifbo va Yozuv darslarida o'tilgan tovushlarni yodga tushirish va ularga oid so'zlarni yodda saqlash maqsadida qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf darslaridan interfaol usullarining qo'llanishi, kutilgan natijaga erishishning asosiy omili sanaladi. Shunday ekan, har bir darsda interfaol usullardan foydalanish yuqori darajada ijobiy natija bera oladi deb o`ylaymiz.

## HEALING PROPERTIES OF PLANTAIN

**М.М.Акбарова** - teacher

**В.Г.Мамазокирова, Х.А.Одилжонов** - female students

Andijan State University

***Annotation.** This article gives you a brief overview on the healing properties of the plant.*

***Keywords:** toothpaste, medicinal, chemical composition, potassium, magnesium, carotene, pectin, ascorbic acid.*

There are 3 types of plantain. 1. Lantsetsion plantain (*Plantago lanceolata*). 2. Large plantain (*Plantago major*). 3. Cotton flower (*Plantago lachnantha*).

Large plantain is a perennial plant, leafy, broadly ovate, broadly elliptical, large plantain (*lanceolate zubtutum*).

Plantain flowers are small, four-membered, colorless, collected in flower beds. The flowers of the plant are spike-shaped, long, cylindrical. Plantain fruits are egg-shaped capsules containing 8-16 seeds. Atsubin glycoside, flavonoids, polysaccharides, fiber, saponins, hydroxycinamic acids, vitamins C and K, elements potassium and magnesium, carotene, pectin, ascorbic acid. The leaves also have bitterness and tannins. Large zubtutum - a perennial herbaceous plant. Despite its beneficial properties, it is a weed. The plant is propagated by self-seeding, propagated by seeds. occurs near roads, in steppes, deserts and meadows.

The most suitable habitat for the plant is fertile soil.



Plantain leaves have expectorant and anti-inflammatory effect. The plant has a hemostatic, bacteriostatic, anti-allergic effect. Plantain is used to activate gastric secretion. The leaves are used in the treatment of the cardiovascular and nervous systems due to their sedative properties.

The healing properties of the essential oils, have long been known in ancient times. The leaves of the plant have anti-inflammatory, antiseptic, hemostatic and expectorant effect. Due to the abundance of aucubin glycosides, hydroxycinnamic acids, ascorbic acid and flavonoids, plantain has a positive effect on blood clotting. The plant has a wound-healing effect, relieves pain and has a strong anti-purulent effect. Taking infusions and tinctures of plantain provides normalization of gastric secretion, so the plant is used to treat gastritis with low acidity.

Also, due to the anti-corrosive properties of zubtutum, its leaves are used in the treatment of intestinal enteritis and enterocolitis. Plantain leaves are applied to external skin lesions. The use of the plant has a strong wound healing, anti-inflammatory and hemostatic effect. Plantain tincture is used when the body temperature rises. They have a calming effect and can lower blood pressure.

Herbal extracts are used in the treatment of tachycardia and gastritis. Plantain is used as a remedy for diarrhea or parasites. Zubtutum is used to treat female and male infertility.

Taking the plant saturates a woman's body with phytosterols, while in men it stimulates sperm production and also lowers cholesterol levels. The presence of mucus in the leaves of the plant allows it to be used in the treatment of viruses and

colds. Plantain infusions and tinctures help to expel phlegm. Used in the treatment of bronchitis, bronchial asthma, pneumonia, whooping cough, tuberculosis. The antispasmodic and anti-inflammatory properties of the plant allow it to be used in the treatment of diseases of the gastrointestinal tract.

### **References**

1. Askarov I.R., Medical encyclopedia, T.,
2. Askarov I.R., Mysterious medicine, T.,
3. <https://www.asos.com>

**HOMILADORLIKNING IKKINCHI TRIMESTRIDA COVID-19  
O'TKAZGAN AYOLLARDA HOMILADORLIK KECHISHIDA OG'IR  
ASORATLAR (TROMBOZ ) KELIB CHIQISHI SABABLARI**

**K.m.n.Sadikova D.R.,**

**Magestr Sharipova M.Sh.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi

2-son akusherlik va ginekologiya kafedrası

***Annotatsiya:** Odamlarning kasallikka moyil toifasi, keksalar qatorida, homilador ayollar hamdir. COVID-19 asoratlari ko`pincha tromboz bilan rivojlanadi. Shuning uchun COVID-19 tufayli tomirlarda qanchalik tez-tez qon quyqalari paydo bo'lishini bilish va klinik diagnostic ko`rsatgichlarni baxolashni bilishimiz kerak.*

*Koronavirusda trombozning aniq xavfini aniqlash qiyin. Ko'p narsa insonning holatiga bog'liq. Kasalxonaga yotqizilganlarning 16-30 foizida shifokorlar vena tomirlar yoki arteriola tomirlarda qon quyqalarini aniqladilar[1].*

***Kalit so`zlar:** Homiladorlik, uchinchi trimestr, tromboz, COVID-19, protrombin vaqti, protrombin indeksi, AQTV, MNO, fibrinogen, trombin vaqti.*

**Dolzarbliqi:** 2019 yil dekabr oyida insoniyat global tahdidga duch keldi - yangi koronavirus infeksiyasi. 2020 yil 11 martda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ushbu kasallikning tarqalishini pandemiya deb e'lon qildi, u tarixda global ahamiyatga ega vaziyat sifatida kirdi. Virusning yuqori yuqumli bo'lishi uning tez tarqalishiga olib keldi, bu esa jiddiy cheklov choralariga olib keldi. Bu holat bizning epidemiologik farovonligimizni xam buzdi.[1]

Odamlarning kasallikka moyil toifasi, keksalar qatorida, homilador ayollar xamdir. Immunitet reaktivligi past bo'lgani uchun ular boshqalarga qaraganda og'ir asoratlarga ko'proq moyil [2]. Salbiy oqibatlar infeksiya sodir bo'lgan homiladorlik yoshiga bevosita bog'liq. Birinchi trimestrda, tug'ma anomaliyalar, ham virusning zararli ta'siri, ham COVID-19 ni davolash uchun ishlatiladigan dorilar ta'siri tufayli u abort bo'lishi mumkin. Ikkinchi trimestrda platsentaning virusli shikastlanishi

tufayli fetoplazental kompleks xavf ostida. Uchinchi trimestr yo'ldoshning mikrosirkulyatsion o'zgarishi tufayli membranalarning erta yorilishi, erta tug'ilish va xomilalik o'tkir gipoksiya bilan xavflidir. Homiladorlikni uzaytirish imkoniyati, tug'ish taktikasi kabi ko'plab munozaralar davom etmoqda. Mavjud sharhlar bir-biriga ziddir [1]. Ba'zilarida biz COVID-19 bilan og'rikan homilador ayollarda kasallikning yengilroq kechishi haqida ma'lumotni ko'ramiz, mualliflar dalil sifatida, bizga gormonlar, progesteron va xorionik gonadotropinni ko'rsatishadi. "Sitokin bo'roni" ning rivojlanishi, o'limning asosiy sabablaridan biri va bemorning o'ta og'ir ahvoli sabab bo'ladi [3]. Boshqa tadqiqotlarda biz homiladorlik paytida ro'y beradigan immunologik va fiziologik o'zgarishlar homilador ayollarning COVID-19ga moyilligini oshirishi haqida ma'lumot olamiz [4].

Xitoy olimlarining 20.01.2020 dan 31.01.2020 yilgacha o'tkazgan tadqiqotida 9 ayolda homiladorlik natijalari tahlil qilindi. Hammasiga pnevmoniya tashxisi qo'yildi, laboratoriya va kompyuter tomografiyasi (COVID-19) bilan tasdiqlangan. Hammasi Vuxan universiteti Zhongnan kasalxonasiga yotqizilgan. Kasallik belgilari o'ziga xos bo'lmagan: isitma (77%), yo'tal (44%), miyalgiya (33%), tomoq og'rig'i (22%), bezovtalik (22%), homilaning buzilishi 9 holatdan 2tasida qayd etilgan[5]. Bemorlarning hech birida nafas etishmovchiligi bo'lgan og'ir pnevmoniya rivojlanmagan. Barcha homilador ayollar sezercha kesish yo'li bilan tug'ishdi. Barcha yangi tug'ilgan chaqaloqlar Apgar shikalasi bo'yicha - 8-9 ball. 6 ta bemordan amniotik suyuqlik, kindik qoni, orofaringeal tampon va ona suti namunalari koronavirusga tekshirildi - ularning hammasi SARSCoV -2 uchun salbiy, bu bilvosita vertikal yuqish yo'qligini ko'rsatadi [6].

**Maqsad:** Homiladorlikning ikkinchi trimestrida covid-19 bilan kasallanganlarda og'ir asoratlari (tromboz) kelib chiqishi sabablari.

**Tadqiqot material va metodlar.** TMA ning 2-klinikasida Covid-19 dan davolangan 30 nafar 17 haftadan oshgan homilador ayollar kasallik tarixi tekshirildi. Bemorlar quyidagi guruhlariga bo'lindi:

-1-guruh 10 nafar (33.3%) Covid-19 yengil kechishi bilan kasallangan bemorlar.

-2-guruh 10 nafar (33.3%) Covid-19 o`rta og`ir kechishi bilan kasallangan bemorlar.

- 3-guruh 10nafar (33.3%) Covid-19 og`ir kechishi bilan kasallangan bemorlar.

-Nazorat guruhi yoshi va jinsiga mos 20 nafar sog`lom shaxslar olindi.

**Tekshirish usullari:** Asosiy va nazorat guruxlari PZR usulida Covid-19ga tashxis qo`yildi va qon namunalaridan quydagilar aniqlanadi protrombin vaqti, protrombin indeksi, AQTV, MNO, fibrinogen, trombin vaqti.

**Natijalar.** Birinchi gurux va nazorat guruxi Qon namunalaridan olingan ko`rsatgichlarni o`rtachga miqdori va o`rtachga miqdordan siljish ko`rsatgichlari.

	Pv, s	Pti, %	MHO	AQTБ, s	Fibrinogen, l/g	Tv, s
<b>1-gurux</b>	<b>9,5±0,5</b>	<b>126±7</b>	<b>0,79±0,04</b>	<b>21,4±3,2</b>	<b>3,9±0,9</b>	<b>10,8±2</b>
<b>N-gurux</b>	<b>11,8±0,4</b>	<b>114±6</b>	<b>0,98±0,03</b>	<b>28,3±4,5</b>	<b>3,2±0,6</b>	<b>14,1±2</b>


Ikkinchi gurux va nazorat guruxi Qon namunalaridan olingan ko`rsatgichlarni o`rtachga miqdori va o`rtachga miqdordan siljish ko`rsatgichlari.

	Pv, s	Pti, %	MHO	AQTБ, s	Fibrinogen, l/g	Tv, s
<b>2-gurux</b>	<b>8,3±0,5</b>	<b>147±6</b>	<b>0,69±0,04</b>	<b>18,6±2,9</b>	<b>4,9±0,6</b>	<b>9,6±2,4</b>
<b>N-gurux</b>	<b>11,8±0,4</b>	<b>114±6</b>	<b>0,98±0,03</b>	<b>28,3±4,5</b>	<b>3,2±0,6</b>	<b>14,1±2,4</b>

3-gurux va nazorat guruxi Qon namunalaridan olingan ko`rsatgichlarni o`rtachga miqdori va o`rtachga miqdordan siljish ko`rsatgichlari.

	Pv, s	Pti, %	MHO	AЧTB , s	Fibrinog en, l/g	Tv, s
3- guru x	7,1±0, 9	151± 5	0,59±0, 07	14,6±2 ,9	5,2±0,4	8,1±2, 0
N- guru x	11,8±0 ,4	114± 6	0,98±0, 03	28,3±4 ,5	3,2±0,6	14,1±2 ,4

Asosiy va nazorat guruxlaridan olingan natijalarni diagrammalar yordamida taqqoslash.



**Xulosa.** Olingan natijalardan xulosa qilish mumkinki COVID-19 bilan kasallanganlarda tromboz kelib chiqishi ko'rsatkichlari giperkoagulyasiya tomoniga siljigan bo'lib, undagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash trombozlar profilaktikasi, homiladorlik jarayonining kechishida va post kovidni sindromlar kelib chiqishini oldini olish uchun katta diagnostik ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar:**

1. Bezhenar V.F., Zazerskaya I.E., Bettixer O. A, Nesterov I.M., Bautin A.E. Bahsli masalalar homiladorlik va yangi koronavirusli bemorlarni tug'ilishni boshqarishda akusherlik taktikasi COVID-19 infeksiyasi // Akusherlik va ginekologiya. 2020. № 5. DOI: 10.18565 / aig.2020.5.13-21.

2. Bezhenar V.F., Zazerskaya I.E. Homilador ayollarda jamoaviy pnevmoniya: differentsial yangi koronavirus infeksiyasi COVID-19 pandemiyasi sharoitida diagnostika, davolash xususiyatlari, akusherlik taktikasi. Darslik / tahr. V.F. Bezhenarya, I.E. Zazerskoy. Sankt -Peterburg: nashriyot EkoVektor, 2020.95 b. DOI: 10.17816 / JOWDS20202.

3. Vaqtinchalik ko'rsatmalar. Yangi korona virus infeksiyasining oldini olish, tashxis qo'yish va davolash (COVID-19). 7 -versiya (06.03.2020). Moskva, 2020 yil.

4. Yangi koronavirus infeksiyasi bilan homilador ayollar, tug'ish paytida bo'lgan ayollar, tug'ruqdan o'tgan ayollar va yangi tug'ilgan chaqaloqlarga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish - 19. Uslubiy tavsiyalar. Moskva, 2020 yil.

5. Chen H., Guo J., Vang C., Luo F., Yu X., Zhang W. Klinik xususiyatlari va intrauterin vertikal. To'qqiz homilador ayolda COVID-19 infeksiyasining tarqalish potentsiali: tibbiy simlarni retrospektiv ko'rib chiqish // Lanset. Ochiq. 2020. jild 395, № 10226. P. 809-815. DOI: 10.1016 / S0140-6736 (20) 30360-3

6. Sog'liqni saqlash xodimlari uchun koronavirus (COVID-19) infeksiyasi homiladorligi bo'yicha qo'llanma. 9 -versiya. RCOG, Qirollik doyalar kolleji, Qirollik pediatriya va bolalar salomatligi kolleji, Jamoat tomonidan nashr etilgan Angliya salomatligi va Shotlandiya sog'liqni saqlash, 2020.

**DOS`TLIK VA HAMJIHATLIK MASKANI**

Guliston davlat universiteti Pedagogika fakulteti

``Boshlang`ich ta`lim`` 50-20-guruh talabasi

**Valiyeva Gulirang**

"Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi".

Shavkat Mirziyoyev

*Annotatsiya: ushbu maqolada yurtimiz ancha paytdan beri 130 dan ortiq millat va elatlar bilan do'stona munosabata ekanligi boshqa millatlarga ham sharoitlar yaratilayotgani ularni huquqlari hurmat qilinayotganligi keng yoritilib ko'rsatilib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: millat, elat, mustaqillik, do'stona, huquqlari, mehmondo'stlik.*

*Annotation: This article highlights the fact that our country has long been friendly with more than 130 nations and peoples, creating conditions for other nations and respecting their rights.*

*Keywords: nation, ethnicity, independence, friendship, rights, hospitality.*

*Аннотация: В данной статье подчеркивается тот факт, что наша страна издавна дружит с более чем 130 нациями и народами, создавая условия для других наций и уважая их права.*

*Ключевые слова: нация, этнос, независимость, дружба, права, гостеприимство.*

Tinchliksiz taraqqiyot va demokratiya bo'lmagani kabi, bag'rikengliksiz tinchlik ham bo'lmaydi, deb ta'kidlandi. Yoshlarga tinchlik va bag'rikenglikning ulug' ne'mat ekani, uni qadriga yetish, jamiyat tinchligi va xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar to'g'risida zarur ma'lumotlarni berish, ularda O'zbekistonning madaniy rangbarangligi, yurtimizdagi millat va elatlarning urf-odatlarini va an'analarni hurmat qilish, shuningdek, ana shu madaniy turfaxillikni asrab-avaylash kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlab o'tildi.

O'zbekistonning kelajagi tinchlik va bag'rikenglik, madaniyatlararo uyg'unlik va millatlararo totuvlik kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Mamlakatimizda istiqloq yillarida millatlararo ahillik va konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlash, ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu barcha sohada olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xalqimiz turmush darajasini yanada yuksaltirish yo'lidagi ezgu sa'y-harakatlarning muhim asosi bo'lib xizmat qilayotir.

Bugun yurtimizda 130 dan ortiq millat va elatlar vakillari bir oila farzandlaridek, teng huquqlilik hamda o'zaro hamjihatlik sharoitida yashab, Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlashga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. Ularning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishlari, o'z qiziqish hamda layoqatlari bo'yicha kasb-hunar egallashlari, madaniyatlari, urf-odatlari, an'analarni saqlash va rivojlantirishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratib berilgan. Bunday yuksak darajadagi e'tibor natijasida ko'p millatli xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi qayta tiklandi, qadr topdi. Barcha millat vakillarining davlat boshqaruvi, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy jarayonlarda keng va erkin ishtirok etishi kafolatlandi.

Hozirgi paytda 138 milliy madaniy markaz, shuningdek, 34 do'stlik jamiyati faoliyati O'zbekistondagi barcha millat hamda elatlarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, an'ana va urf-odatlarini asrash hamda har tomonlama rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyat va davlatni barqaror rivojlantirishda muhim o'rin tutayotir.

Ular "xalq diplomatiyasi" mexanizmidan faol foydalangan holda, tinch hamda farovon hayotni asrash, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va madaniy-ma'rifiy aloqalarni rivojlantirish, chet eldagi hamyurtlarimiz bilan yaqin

hamda o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yishga salmoqli hissa qo'shayapti.

Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qish 7 tilda olib borilmoqda. Teleko'rsatuv va radioeshittirishlar 12 tilda efirga uzatilayotir, gazeta hamda jurnallar 10 dan ortiq tillarda chop qilinayapti.

Er yuzidagi 1600 dan ortiq millatdan bor-yo'g'i 200 ga yaqini o'z davlatchiligiga ega, xolos. Bunday sharoitda butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta'minlash uchun ularning manfaatlari, ruhiyati, intilishlarini muntazam o'rganib borish, siyosiy-ijtimoiy hayotda buni doimo e'tiborga olish zarur.

Jamiyatda millatlararo totuvlik barqaror bo'lishini ta'minlash yo'lidagi amaliy ishlar ma'naviy-ruhiy jarayonlarda ham o'z ifodasini topmoqda. Ushbu jarayonga xos xususiyatlarga to'xtalishdan oldin metodologik ahamiyatga ega bir masalaga diqqatni qaratish lozim. Ma'lumki, ommaviy axborot vositalarida ham, ilmiy adabiyotlarda ham boshqa mamlakatlarda yashovchi turli millat va elat vakillarining o'z milliy davlatlariga bo'lgan munosabatlarini ifodalash uchun aksariyat hollarda «etnik vatan» yoki «tarixiy va-tan» tuShunchalari ishlatib kelinmoqda. Bu tuShunchalarning to'g'riligini inkor etmagan holda, ularni o'rinsiz qo'llash hollari ham mavjudligini ta'kidlash zarur. Masalan, yurtimizda istiqomat qiluvchi tojiklar uchun Tojikiston, qirgizlar uchun Qirgiziston, qozoqlar uchun Qozog'iston, turkmanlar uchun Turkmaniston hech qachon etnik yoki tarixiy Vatan bo'la olmaydi. Bizningcha, «etnik vatan» va «ta-rixiy Vatan» tuShunchalari deyarli bir xil mazmunga ega bo'lib, xalqning tarixan et-nik birlik sifatida shakllangan hududini anglatadi. Nomlari zikr qilingan millatlarning bir qismi esa tarixan hozirgi O'zbekiston hududida yashab kelgan va bugungi kunda qo'shni davlatlarga nom berib siyosiy jihatdan uyushgan qismi bi-lan bog'liq holda yagona etnos sifatida rivoj topgan. Demak, ular tarixan Shu hududda yashab, etnosning bir kismi si-fatida shakllanganlar. Mamlakatimizga tatbiqan olinganda esa, etnik(tarixiy) Vatani qaerda bo'lishidan qat'i nazar, fuqarolarimizda «O'zbekiston – yagona Vatan» degan tuyg'u qaror topganini bugungi kunda kechayotgan ma'naviy-ruhiy jarayonlarning asosiy xususiyati sifatida qayd etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

1. Ma`naviyat asoslari. V.Qo`chqorov, O. Mahmudov, Z.Zamonov .  
Toshkent “ Yangiyo`l poligraf servis”.
2. Milliy istiqlol g`oyasi. O`zbekiston Respublikasi Xalq Ta`lim Vazirligi.  
Toshkent “Ma`naviyat” 2015.

## UZLUKSIZ TA'LIMNING BUGUNGI VAZIFASI, PEDAGOGLARNING YANGI, ZAMON TALABLARI ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH

**Mirzaolimova Dilnura,**

Andijon viloyati Andijon tumani

47- umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim jarayonida yangi o'quv-uslubiy texnologiyalaridan foydalanish va ularni dars jarayoni yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: pedagog, innovatsiya, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim tizimi, interfaol metodlar, pedagogik mahorat yangi pedagogik texnologiya;*

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich ta'biri bilan aytganda, -Agar mendan sizni nima qiynaydi? deb so'rasangiz farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman, degan so'zlari ham bunga yana bir karra misoldir. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan ildam borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish va ular orqali ta'lim samaradorligini oshirish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Uzluksiz ta'limning bugungi vazifasi, pedagoglarning yangi, zamon talablari asosidagi innovatsion axborot texnologiyalari orqali dars davomida ulardan samarali foydalanib, o'quvchilarga ma'lumotlarni aniq va tushunarli qilib, yetkazib berish hisoblanadi. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifalarni uddalashda innovatsion faoliyatning o'rni benihoya katta. Ta'lim-tarbiya sohasi kundan- kunga yangi bosqichga ko'tarilib borgan sayin o'quvchilar fikr doirasi ham kengayib bormoqda, bu o'z o'rnida axborat olish osonlashmoqda degani, mana shunday o'sish jarayonida o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanmaslik darsning samaradorligini pasaytirib yuboradi. Masalan: oshpazlar bir xil guruchdan palov pishirishadi, lekin ba'zi mahoratli oshpazlar palovni o'ta puxtalik bilan tayyorlab maqtovg'a

sazovor bo'lishadi, nonvoylar ham bir xil undan non pishirsalarda, ularning ba'zilariniki shakli va mazasi jihatidan ajralib turadi. Bularning hammasi kasbiy mahoratning evaziga erishiladi. O'qituvchi ham o'z kasbiga puxta yondashgan holda darslarni tashkil etsa, bir umr hurmat va e'tiborda bo'ladi. Bugungi kunda axbarot ko'lami juda kengayib ketdi. Agar o'qituvchi o'z ustida ishlamasa, avvalgi o'qib-o'rgangan bilimlari bugungi zamon talablariga javob bermay qo'yadi. Har bir dars o'tish jarayonini kundalik hayotdagi voqealar bilan bog'lab o'tilsa, turli innovatsion texnologiyalaridan foydalanilsa, dars o'quvchi uchun zerikarli mashg'ulot emas, balki qiziqarli mashg'ulotga aylanadi va bu qiziqarli, mashg'ulot o'quvchi ongida butun umr muhrlanib qoladi. O'qituvchi o'quvchilarga innovatsion usullardan foydalanib, fanlar aro bog'langan ya'ni integratsiyalashgan holda ekologik-gigeyenik bilimlar bilan darsni to'ldirishi zarur. Innovatsiya so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak, Innovatsiya –(inglizcha) yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni ifodalaydi, texnologiya esa yunoncha —texnos` – san'at, mahorat va —logos` –fan so'zlaridan olinib, innovatsion texnologiya ta'limtarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondashish degan ma'noni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish lozimdir. O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi mumkin. O'qituvchi faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqida tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish kerak. Har bir o'qituvchi ta'limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini hisoblanadi. Shu sababli, ana shu jarayonda o'quvchi shaxsini mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlarga yo'l ochib beradilar. Bolaning o'qishga bo'lgan munosabatlari, aqliy

salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar, tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos bo'lishi kerak. Chunki, bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xoxish, va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiya bu – ilmiy izlanishlar, tajriba –sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda o'quvchilarga yangi bilim berishdan iborat. Innovatsion texnologiyalaridan foydalanib o'tilgan darslar o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo'ladilar, o'z g'alar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalarida o'quvchilarni bilimli, yetuk va fanlarni chuqur o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Foydaniilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari-yangi imkoniyatlar` .(Gulnoz Hamroyeva) Toshkent -2015
3. Avliyoqulov N. `Zamonaviy o'qitish texnologiyalari` - T:2001

**BIOLOGIYANI O'QITISHDA LOYIHALASH TEXNOLOGIYASI.****Nurmatov Sherzod Qurbonovich**

Sirdaryo viloyati Guliston shahar nomidagi ijod maktabi

biologiya fani o'qituvchisi

**Xudoyberdiyeva Halima**

Sirdaryo viloyati Guliston shahar nomidagi ijod maktabi

biologiya fani o'qituvchisi

*Annotatsiya.* Loyihalash texnologiyasi jahon pedagogikasida yangilik hisoblanmaydi, chunki, u 1920- yillarda amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyu va uning shogirdi V.X. Kilpatrik tomonidan ishlab chiqilgan loyihalash metodi asosida vujudga kelgan.

*Kalit so'zlar.* AQSH, Buyuk Britaniya, Belgiya, Isroil, Finlandiya, Germaniya, Rossiya, Italiya, V.X. Kilpatrik, J.Dyu.

Hozirgi kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Belgiya, Isroil, Finlandiya, Germaniya, Rossiya, Italiya, Braziliya va Niderlandiya kabi rivojlangan mamlakatlarning ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda. J. Dyu o'qitishni o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojini hisobga olgan holda o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini faollashtirish orqali tashkil etishni taklif etgan. Buning uchun o'quvchilarga o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga qo'llash, ulardan kelgusi hayotda foydalanish yo'llarini ko'rsatish, ya'ni nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'liq holda o'qitish lozimligini uqtirgan. Bu jarayonda o'quvchilar tanish vaziyatdagi ahamiyatga molik muammolarni avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalarini amaliyotga qo'llab hal etish orqali yangi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar. O'quvchilar muammolarni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun o'qituvchi ularga tegishli ko'rsatmalar berishi, foydalaniladigan manbalarni tavsiya etishi, o'qitishdan ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini ko'rsatishi, buning uchun muammoni hal etishda o'quvchilarning faoliyatini loyihalashi lozim. Loyihalash texnologiyasining asosiy g'oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etish

jarayonida ko'zlangan natijaga erishishdir. Agar nazariy muammoni loyihalash lozim bo'lsa, uning aniq yechimi, agar amaliy muammo bo'lsa, amaliyotga qo'llash masalasi bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish lozim. O'quvchilar ushbu natijaga erishish uchun mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini egallagan bo'lishlari, muammoni anglash va uni hal etish yo'llarini izlashlari bu borada avval o'zlashtirgan bilimlaridan foydalanishlari, fanning turli sohalarida izlanishlar olib borishlari, olinajak natijalarni bashorat qilish, turli yechimdagi variantlar ishlab chiqish, sabab-oqibat bog'lanishlarini tasavvur qilishlari zarur. Loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati ma'lum bir muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish, ularning tegishli bilimlarni egallashlari, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish sanaladi. Loyihalash texnologiyasining asosiy tezisi: «O'rganilayotgan bilim, ko'nikmalar menga nima uchun zarurligi va undan qayerda va qay tarzda foydalanishni bilaman» sanaladi. Bu tezis o'quvchilarning fan asoslarini ongli o'zlashtirishlari, hayotga moslashishlari va mo'ljalni to'g'ri olishlariga yordam beradi. Biologiyani o'qitishda o'qituvchi loyihalash texnologiyasidan o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda nafaqat darsda o'quv muammolarini hal etishda, balki darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham ijodiy muammolarni hal etishda foydalanishi zarur. Biologiya o'qituvchisi bu toifadagi loyihalardan darsda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarida foydalanishi mumkin. Botanika o'quv kursida o'simlik organlarini o'rganib bo'lgandan so'ng, «O'simlik — yaxlit organizm» mavzusini o'rganishda o'quvchilarga quyidagi loyiha tavsiya etiladi. Loyiha mavzusi: o'simlik yaxlit organizm. Loyihaning maqsadi: o'simlik organlarining tuzilishi va funksiyasini hisobga olgan holda uning yaxlit organizm ekanligini isbotlash. Loyihaning mazmuni: o'simliklarning vegetativ va generativ organlarining tuzilishi va funksiyasini qayd etgan holda o'simlik yaxlit organizm ekanligini isbotlang. O'simlik organlari o'rtasidagi bog'lanishlar aks etgan jadvalni tuzing va shu asosda flkrlaringizni dalillang. Jumladan, «Qizil lola» jamoasining monitoringini tuzish» mavzusidagi loyiha iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda, ayniqsa, qo'l keladi.

Biologiyani o'qitishda o'qituvchi loyihalash texnologiyasidan foydalanish uchun: — loyihalar toifasi, mavzusi va qatnashchilar sonini aniqlashi; — loyihani amalga oshirish uchun turli variantlardagi muammolar zanjirini tuzishi; — loyiha predmeti, vazifasi va bosqichlarini aniqlashi; — loyiha qatnashchilari uchun topshiriqlar tuzishi va ularni a'zolar o'rtasida taqsimlashi; — ilmiy-izlanish, tadqiqot mavzulari bo'yicha o'quvchilarning yakka tartibdagi, juftlikda yoki kichik guruhlarda mustaqil izlanishlarini tashkil etishi; — loyihadan kutilgan natijalarni aniqlashi, uni rasmiylashtirish va taqdimotini belgilashi; — loyiha ishini yakunlashi, baholash mezonini va xulosalar yasash yo'llarini aniqlashi lozim; — loyihalash texnologiyasi — rivojlantiruvchi ta'limga asos bo'ladi. O'quvchilarda aqliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

7. N.N. Azizxojayeva. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. Oliy o'quv yurti o'qituvchilari va malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun metodik qo'llanma. T.: 2007.
8. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. — T.: «Bilim» 2004.
9. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

## **SOCIAL PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES TO INCREASE THE EFFICIENCY OF TECHNOLOGIES OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK.**

Teacher of the Department of Music Education of the Uzbek-Finnish  
Pedagogical Institute of SamSU.

**Pardaev Sobit Abduvali oglu**

***Annotation:** Detailed information on the social and pedagogical opportunities to increase the effectiveness of spiritual and educational work.*

***Keywords:** Spiritual-enlightenment, technology, education, national independence, socio-spiritual, society.*

The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to develop the concept of development of the national idea at a new stage of development of Uzbekistan" states: The development and application of effective methods and tools to combat ideological threats is lagging behind the times. Indeed, the technological essence of the system of spiritual and enlightenment work is reflected in its inherent principles of continuity and continuity. That is, from kindergarten, which is the most important and basic link in the educational process, preschool education, general secondary schools, secondary special, vocational and higher education institutions, aimed at the formation and development of values of social and spiritual significance, the spirit of love and devotion to the Fatherland. covers enterprises and organizations.

In accordance with the order of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated March 2, 2011 07 / 44-1-con and February 21, 2012 No 32 was used to improve the skills of teachers and organize training courses on the "Spiritual and educational basis of combating religious extremism and terrorism" ( Reference of the Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan No. XZ-02 / 21-429 of October 13, 2016); In the preparation and

implementation of the Program of measures approved by the Cabinet of Ministers of January 8, 2016 No. 9 (paragraphs 2, 5, 8, 15, 16, 17, 18, 19, 20, 34, 47, 53), as well as , Used in the activities of the monitoring group under the Cabinet of Ministers, approved by the order of the Deputy Prime Minister dated August 18, 2016 (reference of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated November 20, 2016 №08 / 1-250). from training programs, scientific-practical manuals and tools and proposals aimed at increasing the effectiveness of prevention of religious extremism and terrorism in secondary special, vocational education institutions in professional colleges and academic lyceums; In the preparation of the Instruction on educational work with the staff of the State Security Service of the President of the Republic of Uzbekistan (2018), "Fundamentals of Spirituality" (2018), "The idea of national independence: basic concepts and principles" prepared for the "Temurbek School"; It was used in seminars-trainings (2019) on "Improving the effectiveness of state and public organizations in improving the socio-spiritual environment" at the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan and in the effective organization of spiritual and educational work.

Every developed country in the world has its own history of a developed system of enlightenment and propaganda. In particular, the US propaganda system officially links its historical development with the formation of the "Cyril Committee", which was formed on April 14, 1917, as part of the government, based on the requirements of the First World War. The development of electronic media has dramatically changed the proportion of propaganda media in the world. In particular, the efficiency and speed of television and radio broadcasting revolutionized. According to TV researcher D. Dondurey, the importance of television today is no less important than the national economy and national security. Because it is developing and promoting a field of meanings in the country. All aspects of spirituality and

culture - from values to real behavior, from morality to the national character - are designed and controlled by television.<sup>1</sup>

Many of the trends that determine the development of information programs originated in Western society and later became the most widespread educational system in the world. The concept of "infotainment" corresponds to this social trend. The term is derived from the English word interteyment information, which means spreading good news, entertaining messages.

*“Инфотейнмент<sup>2</sup>”* and facilitates comprehension, arouses curiosity, produces a message, and coordinates conditions. In this case, the issue will be discussed by respected, well-known experts.

In the infotainment style of propaganda, the image changes completely, requiring it to attract and retain the attention of the entire audience, support their interests, and keep them emotionally active. This has led to its popularity and the creation of self-replicas in television technology, shows and spiritual-educational work. As a result, it has become a vanguard of advocacy programs.

In today's Europe, the position of new technology-based educational lectures is growing. Public speaking is one of the most active eydj technologies as an effective form of encouraging people to think. People who attend modern public lectures know the news, find answers to questions they don't understand, and discuss new films and projects. Modern public education is education in the form of entertainment, ie the dissemination of knowledge through play. Education technology is developed in Western universities and involves the conduct of classes in the form of shows. . performance - presentation) also affects communication on social networks.

The norms and rules that emerge in online and offline cultural relations are penetrating the spiritual and educational sphere. Interactive and horizontal communication are the most important features of social communication on the

<sup>1</sup> Dondurei, D. B. TV formats life [Electronic resource] / D. B. Dondurei // Art of cinema. 2014. No. 10. URL: <http://kinoart.ru/archive/2014/10/tv-formatiruet-zhizn>

<sup>2</sup> Инфотейнмент.

Internet, which led to the emergence of "online associations" in leisure associations and organizations-network organizations. In the field of motivation of Internet users, the information culture is based on recreational motives, communicative motives and motivations for self-expression. Their interests are driven by self-expression and affiliation (finding their place among the like on the Internet), self-awareness, mastery and communication.<sup>3</sup>

In order to carry out spiritual and educational work in the districts and cities with an effective social and pedagogical system, it is important to study their daily lives, their spiritual needs and gain confidence in their own strength in order to effectively influence the lives, tastes and feelings of the population. This requires technological coordination of the activities of the subjects of spiritual and educational activities on a socio-pedagogical basis.

#### REFERENCES:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. F-5465 "On measures to develop the concept of development of the national idea at a new stage of development of Uzbekistan." April 8, 2019.

2. Dondurey, D. B. B. TV formatizet jizn [Electronic resource] / D. B. B. Dondurey // Cinema Art. 2014. № 10. URL: <http://kinoart.ru/archive/2014/10/tv-formatiruet-zhizn>.

3. Petrushchenkov A.V. Tsentr informatsionnoy kultury v sisteme universitetskogo internet-tsentra: avtoref. Dis. Cand. Ped nauk. Kaliningrad, 2000. p. 16. Patyurel R. Creating a set of organizational structures. URL: // <http://www.ptpu.ru>. Heading to the screen

---

<sup>3</sup> A. V. Petrushchenkov Center for Information Culture in the University Internet Center: author. Dis. Cand. Pedagogue of Sciences. Kaliningrad, 2000. S. 16. Patyurel R. Creation of network organizational structures. URL: // <http://www.ptpu.ru>. Screen title

## QO'SHMA SO'ZNING YASALISH MODELLARI.

**Qosimova Zaynura Otaniyozovna**

Navoiy viloyati Karmana tumani 30-maktab

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Kompozitsiya yo'li bilan so'z yasash kompozitivlar - qo'shma so'zlar yaratish bo'lib, bunda ikki (yoki undan ortiq) so'zning qo'shilishi yangi leksik birlik - leksemani hosil qiladi. So'z yasashning bu tipi ham o'zbek tilidagi faol yo'llardandir.*

***Kalit so'zlar.** Aniqlanmish, grammatik aloqa, genetik jihat, kesim, ega, negiz, o'zak, leksema, kompozitivlar, Kompozitsiya.*

Qo'shma so'zning komponentlari, tarkibidagi qismlari, ayrim so'z (tub so'z yoki yasama so'z) tusida bo'ladi: bu element shu ko'rinishida boshqa kombinatsiyalarda o'zak yoki negiz vazifasida kela oladi. Lekin bu elementning ikki holati - ayrim so'zligi va qo'shma so'z tarkibida kelishi (mustaqil so'zligi va so'zning qismi bo'lishi) bir-biridan jiddiy farqlanib turadi. Qo'shma so'zning ko'pi tashqi tomondan «aniqlovchi aniqlanmish» sxemasidagi so'z birikmasiga o'xshaydi, hatto shunday omonimik hollar ham borki, shu shakldagi kompleksning qo'shma so'zmi yoki so'z qo'shilishimi ekanligi turli vositalar orqali aniqlanadi: bunda semantik-grammatik, intonatsion vositalar farqlovchilik rolini bajaradi. Har holda omonimik ko'rinishlar ham to'la, aniq ajralib turish xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, qora qovun: so'z birikmasi va qo'shma so'z: qora tusdagi qovun va qovunning bir turi. Qiyoslang: baribir kompleksi hozirgi tilda - bir so'z (leksikalizatsiya). Lekin u aslida (shuningdek, hozirgi tilda ajratilgan holda qo'llangan o'rinlarda) ikki so'zdir: bari (ega), bir (kesim). Birinchi holatda, tabiiy bir so'z - ikki o'zak morfemaning birikib ketishidan tug'ilgan bir so'z sanaladi, lekin u, genetik jihatdan qaraganda, grammatik aloqaga kirishgan ikki mustaqil so'zdir. Qo'shma so'z bir butun leksik ma'no - bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish - grammatik strukturasi ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi. Demak, u bir so'zdir, uning komponentlari - qismlari orasida grammatik aloqa yo'q (lekin semantik aloqa bor), u har qanday so'z qo'shilmasida - gapda, so'z

birikmasida - bir sintaktik funksiyani bajaradi. Qo'shma so'z, sodda so'zlar kabi, tilning bir birligi bo'lib, undan nutqda har gal tayyor leksik material sifatida foydalanamiz, so'z birikmasi esa bunday tayyor hodisa emas: u nutq jarayonida ma'lum qoidalar asosida hosil qilinadi. So'z birikmasidagi har bir komponent, mustaqil so'z o'zaro grammatik aloqaga kirishgan bo'ladi, demak, bu sintaktik hodisadir. Masalan, paxtaning guli: aniqlovchi + aniqlanmish. So'z birikmasi bilan qo'shma so'z orasidagi fonetik farqlanish sezilarli, jiddiy xarakterga ega emas. Odatda, fonetik yaxlitlanish so'z birikmasida ham, qo'shma so'zda ham, asosan, bir tusda bo'ladi: yosh bola va tosh bodom birikuvlarini qiyoslang. Qo'shma so'zning bir turi tug'ilish jihatidan so'z birikmasi bilan aloqador, lekin ko'pi mavjud qo'shma so'zlarga analogiya yo'li bilan, qo'shma so'zning tayyor modeliga qarab hosil qilingan. Qo'shma so'zlarda ham yasalganlikning umumiy belgilari – chog'ishtirishdagi semantik va shakliy bog'lanish saqlanadi, lekin bu aloqa turli sabablar natijasida (masalan, fonetik o'zgarish natijasida) sezilmas holga kelishi ham mumkin (soddalanish hodisasi): tog'olcha: to-g'ol-cha - tog'-olcha - tog'olucha, og'ayni - og'a-ini, qayni – qayini - qayin-ini, bugun - bu kun, achchuchuv – achchiqchuchuv - achchiq-chuchuk (asli - juft so'z, bir xil salat, shakarob ma'nosida), bu hodisa jonli so'zlashuvda ko'proq uchraydi. Qo'shma so'z o'zining bir qancha xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Qo'shma so'zning tarkibidagi komponentlarning o'zaro munosabati quyidagicha voqelanadi: 1) ular orasidagi grammatik munosabat shu tipdagi so'z birikmasiga qarab, tarixiy planda belgilanadi; demak, sinxronik jihatdan qaraganimizda, orada bunday munosabat faraz qilinmaydi, chunki bu aloqa saqlangan bo'lsa, u kompleks so'z birikmasi bo'ladi, ikki so'z sanaladi. Masalan, shakar qop (qo'shma so'z, barqaror holatga ega, nutq jarayonida hosil qilinmaydi), shakarning qopi (so'z birikmasi). Komponentlarning grammatik aloqasi, tug'ilish e'tibori bilan ikki xil: a) tobelanish (komponentlarning munosabati aslida tobelanish yo'lini ko'rsatadigan qo'shma so'zlar): o'q ariq, o'q ilon, suv ilon; qo'y tikan, cho'l qurbaqa; dala chumchuq, shahar chumchuq, tol chumchuq; yo'l pashsha, yo'l chivin, it pashsha kabi; b) tenglanish (komponentlarning munosabati aslida tenglashishga asoslangan bo'ladi): o'tin-

ko'mir (yoqilg'i), ota-ona, mosh-guruch, soch-soqol; tarkibli sonlarda: o'n besh (o'n va besh. Qiyoslang: besh yuz - yuz besh: birinchisi - tobelanish, ikkinchisi - tenglanish: yuz va besh). Bu ikki xil bog'lanishni chog'ishtirsak, bog'lanish - birikishning nisbatan tobelanishda kuchli ekanligini ko'ramiz: o'tin-ko'mir tipidagi qo'shilmalarda komponentlarning nisbatan ayrim-ayrimligi aniq sezilib turadi. Komponentlarning bog'lanish yo'llari, ularda bog'lanishning turli vositalarining ishlatilishi ham bir xil emas: amorf holda (affikssiz) bog'lanish, affiks yordami bilan bog'lanish (to'y boshi, so'z boshi kabi). Affikssiz bog'lanish eng qadimgi, sodda yo'l bo'lib, u jonli - so'zlashuv nutqida ko'p uchraydi. 2) komponentlarning semantik munosabati har xil: xoslik munosabati (it pashsha, ot to'rva), o'xshashlik (tosh ko'mir, anjir shaftoli, karnay gul), o'ringa munosabat (qo'qon gul), biror belgiga munosabat (achchiq olma), miqdorga munosabat (mingoyoq, qirqog'ayni), harakat va obyekt munosabati (beshik tervatar, muz yorar, yer teshar). Bunday munosabatning turi ko'p: (bular har bir turkumning o'z ichida tahlil qilinadi) birinchi komponent ikkinchisini semantik jihatdan konkretlashtiradi - chegaralaydi (ilon - umuman, o'q ilon, suv ilon - shuning turlari), bu bilan bir jinsning ichidagi qismlar - tur ma'nosi ham kelib chiqadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

10. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
11. Tojiyev Yo. O'zbek tili morfemikasi. –T., 1992.
12. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

## TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION USHLARNI ISHLAB CHIQUISHNING ZARURIYATI.

**Ravshanova Kamola Rustamovna**

Navoiy viloyati Karmana tumani

30-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Hozirgi sharoitda innovatsion faollik oliy ta'limning ham mazmun hamda tashkiliy tuzilmaviy jihatdan qayta ishlab chiqish bilan bevosita bog'liq. Bu jarayonlarning asosi bo'lib oxirgi uch, o'n yillikda pedagogik ta'lim nazariyasini tezkor ishlab chiqilishi bo'ldi.*

***Kalit so'zlar.** D.B.Elkonin, professionalism, Anglovskiy M.V. Klarin, V.Ya.Lyaudis, M.N.Potaunik, S.D.Polyakov, T.I.Shamova, O.T.Xomeriki, N.R.Yusupbekova, V.A.Slastenin, innovatsion faollik.*

Pedagogik ta'lim rivojlanishining zamonaviy innovatsion yo'nalishlarini ichida xususiy innovatsion nazariyani shaxsiy (xususiy) yo'nalishli ta'lim sohasidagi ishlanmalarni, ta'limni tashkiliy-tuzilmaviy modelini, ta'limni ko'p darajali tizimini rivojlantirishni ajratib ko'rsatish mumkin. Oxirgi o'n yillikda pedagogik innovatsion nazariy asoslari ishlab chiqilyapti. Ayniqsa, K. Anglovskiy M.V. Klarin, V. Ya. Lyaudis, M. N. Potauunik, S. D. Polyakov, T. I. Shamova, O. T. Xomeriki, N. R. Yusupbekova, V. A. Slastenin va b. q. larning ishlarida pedagogik professionalizmni rivojlantirishning o'ziga xos tomonlarini aniqlash va oliy ta'limda o'qitish jarayonida bo'lg'usi o'qituvchining innovatsion imkoniyatlarini rivojlantirish olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarning bahs mavzusi bo'lib qolmoqda. Shaxsiy yo'nalishli ta'lim konsepsiyasi madaniy-tarixiy va faoliyatli yondashuvga asoslanadi (L. S. Vygotskiy, A. A. Leontev, D. B. Elkonin, E. V. Ilenko, V. V. Davydov, G. P. Shedrovitskiy, A. G. Asmolov) va bugungi kunda umummetodologik jihatdan V. V. Serikov, V. G. Sukerman, V. P. Zinchenko, L. N. Kulikovlarning ishlari alohida ahamiyatga molik. Tashkiliy-boshqaruv darajasida ushbu muammo bilan M. N. Kostikov, V. A. Boltovlar shug'ullangan. Ushbu konsepsiyaning yetakchi g'oyalaridan biri pedagogik ta'limda predmetli tayyorlashning roli va o'rnini anglab yetish, predmetlarni o'zlashtirish bilan asosiy

e'tibor o'quvchilarni rivojlantirish vositasi sifatida predmetni o'qitishga asosiy maqsad qaratiladi. Bunday ta'limning bosh natijasi egallangan bilim, ko'nikma va malakalar emas, balki shaxs o'sishiga qobiliyat, empatik o'zaro munosabatlar va shaxsiy samaradorlikka qaratilgan yuqori ijtimoiy faollik tushuniladi. Hayotiy kelajakni amalga oshirish uchun inson ongli tarzda qayta o'z-o'zini faoliyatini yo'lga qo'yadi va buning uchun ta'lim jarayoni imkoniyatlaridan foydalanadi. Ayniqsa, bu jarayon talaba yoshi davri, yoshlik davri ayni ushbu jarayonni yo'lga qo'yish uchun muhim bosqich davri hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaning keyingi g'oyasi pedagogik sub'ektivlikni rivojlanishi bilan bog'liq: talaba "o'rganuvchi", "o'quvchi", "o'qitadigan" pozitsiya orqali o'tadi.

Agar oliy o'quv yurti "o'qish joyi va vaqti emas, balki yigit va qizlarni katta bo'lish maydoni" (D.B.Elkonin) deb qaralsa, u holda ushbu oliy o'quv yurtidagi pedagogik jarayon uni amalga oshirish orqali ta'lim olayotgan talabaning o'z-o'zini rivojlantirishini faollashtiruvchi, hech bir narsa bilan qiyoslab bo'lmaydigan pedagogik jarayonni ijodiy-o'zini qayta qurish sub'ekti ham talaba, ham pedagog uchun imkoniyatlar hisoblanadi.

O'qituvchi faoliyati ham o'zgaradi: "usta" ishlari orqali bilimlarini pedagogik texnologiya asosida yetkazishdan, talabalarda pedagogik qobiliyatni shakllantirish maqsadida birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi "maslahatchi" pozitsiyada talabalar bilan birgalikda uning kelajak kasbiy faoliyatini loyihalovchiga aylanadi. Shunga ko'ra integrativ ta'lim texnologiyalarini yo'lga qo'yish dolzarb bo'lib qoladi.

Ushbu masalada ta'limni loyihalash bilan shug'ullanuvchi muammolar instituti bugungi kundagi dolzarb masalada yetakchilik qilmog'i zarur. Bundan tashqari oliy ta'limda har bir fanlarni o'qitish sohasida pedagogika va psixologiya fanlari bloki tezkor texnologik izlanishlarni amalga oshirish bilan shug'ullanishlari kerak.

Pedagogik ta'lim amalga oshirishining tashkiliy-tuzilmaviy modeli haqida alohida to'xtalish kerakligi e'tiborga loyiq. Bular: kichik darajadagi, ko'p bosqichli va ko'p darajadagi modellarga qaratilishidan iborat. Yuqorida ko'rsatib

o'tilgan har bir model mustaqil yaxlit ta'lim sifatida qaralib, ular o'zlarining jilg'alariga ega bo'lib, aniq ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy xolatlar bilan bevosita bog'liq.

Kichik darajadagi tizim – bu oliy ta'limdagi an'anaviy tizim hisoblanib, u qat'iy hisoblanib, bunda tor mutaxassislar tayyorlanib, ta'lim jarayonida o'qitish variantlarini tanlash imkoniyati mavjud emas. Qabul qilingan 1998yildagi DTS da variativ qismi kiritilgan bo'lsada, lekin bu tizim ham baribir shaxs tanlash imkoniyatlarini chagaralaydi.

Oliy ta'limning ko'p bosqichli tizimini ishlab chiqish va joriy etishni kuchli innovatsion jarayon sifatida belgilash mumkin. Ushbu masalada G'arbiy Yevropa mamlakatlari tajribasi har tomonlama tahlil etilib, baho berildi va O'zbekiston Respublikasi sharoitida o'zimizning mentalitetimizdan kelib chiqib, oliy ta'limning o'ziga xos ko'p bosqichli tizimi yaratildi.

O'qitish asosiga ta'limiy-kasbiy dasturlar qo'yilgan bo'lib, ular beshta blok-model prinsipidan tashkil topgan: ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlar, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar, umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlari hamda qo'shimcha fanlar tizimidan iborat. Texnologik jihatidan kasbiy ta'limning mazmuni, metodlari va metodikasini tanlashga madaniy yondashuv bilan bevosita bog'liq.. Ushbu dasturlarni ishlab chiqilishida har bir blokning vazifasi, bloklar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tashkiliy, didaktik-texnologik ishlar va malakali mutaxassislar bilan hamkorlikda amalga oshirilgani ko'zga tashlanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

13. Abdullayeva Q. Birinchi sinfda nutq o'stirish. - Toshkent, "O'qituvchi", 1980.
14. Abdullayeva Q. Savod o'rgatish. Toshkent, 1983.
15. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

## BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA XALQARO BAHOLASH TIZIMLARIDAN FOYDALANISHNING ASOSLARI

**Raximova Dilafruz,**

Andijon viloyati Andijon tumani

36- umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Uchinchi Renessans talablari asosida ta'lim tizimini progressiv isloh qilish va rivojlantirish, pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning negizida tahsil oluvchilarning iqtidorini, kognitiv bilim sohasini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, qiziqishlari va ehtiyoji asosida sifatli bilim berish, tahsil oluvchilarning kreativligini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.*

***Kalit so'zlar.** PIRLS, TIMSS, PISA, O'qish savodxonligi, xalqaro dastur, intellek, kognitiv strategiyalar.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da tasdiqlangan muhim strategik yo'nalishlar sifatida ta'lim, fan va davlat yoshlar siyosatini takomillashtirish sohaslarini rivojlantirish, deb belgilangan. Mazkur yo'nalishlarning hayotga tatbiq etilishi uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, yuksak malakali kadrlarni tayyorlash; ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga tatbiq qilishning samarali mexanizmlarini yaratishdir. Bu esa intellektual rivojlangan yoshlarni tarbiyalash; yosh avlodning ijodiy va aqliy salohiyatini qo'llab-qo'vvatlash va hayotga tatbiq etish yo'llari bilan amalga oshiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori<sup>4</sup> asosida xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga kirishilgan bo'lib, Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi PIRLS, TIMSS, PISA dasturlariga doir o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligi,

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-son qarori.

ijodiy fikrlashini baholash va rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish hamda joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar qatorida PIRLS xalqaro dasturi o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholovchi dastur sifatida alohida o'rin tutadi. O'qish savodxonligi - tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan hamda jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi turli shakldagi matnlardan mazmun hosil qiladi. Ular o'rganish, maktab va kundalik hayotda o'zlari kabi boshqa o'quvchilar jamoasiga qo'shilish va vaqtini samarali o'tkazish uchun o'qiydilar.

O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati hamdir. O'qish jarayonining boshlanishi, o'rtasi va oxirida o'quvchi til ko'nikmalarining, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda mazmun shakllantirishda birlamchi bilim va ko'nikmalar majmuasidan foydalanadi. Bundan tashqari, o'qish muhitini yuzaga keltiradigan sharoit o'quvchini o'qishga rag'batlantirish va qiziqtirish orqali matn mazmunini shakllantirishga yordamlashadi, ammo sharoit matn mazmunini tushunish imkonini bermaydigan muayyan talablarni yuzaga keltirishi ham mumkin.

Biz boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning adabiy - nutqiy kompetentsiyasini milliy baholash dasturidan foydalanish asosida diagnostika qilishning nazariy-pedagogik asoslarini tadqiq qilishdan oldin xalqaro baholash dasturlari mazmunini ham tahlil qilishga kirishdik. PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalari qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

PIRLS dasturida asosiy e'tibor 4-sinf o'quvchilariga qaratiladi, buning boisi odatda, ushbu rivojlanish davrida o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi.

Ushbu xalqaro dastur bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida katta ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. Ma'lumki, o'qish savodxonligi insonlarning o'qishdan ko'zlagan maqsadlari bilan bevosita bog'liqdir. Ko'pgina yosh o'quvchilar endigina o'qishni boshlaganlarida asosan hikoyali matnlar (masalan, hikoyalar yoki suratli kitoblar) yoki o'quvchilarga o'zlarini o'rab turgan muhit haqida informatsion va savollariga javob beruvchi ma'lumotlarga boy matnlarni o'qiydi. O'quv dasturiga ko'ra, kitob va boshqa bosma materiallardan ma'lumot olish uchun o'qish muhim ahamiyatga ega ekanligi bois, yosh o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirib, o'rganish uchun o'qishlari kerakligi talab qilinmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, o'quvchilar milliy va jahon adabiyotlarini o'qib, ta'lil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik xaqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi. Ularga ongli munosabat bildirish hamda o'zlaridagi axloqiy-maonaviy fazilatlarining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi. Mutolaa o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqlari rivojlanadi. Bolaning matn mazmunini to'liq uqib olishi qayta 'ikoyalashi, shuningdek, o'zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi malakalari hosil qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Шаханова Н.Ж. Национальная модель аккредитации: опыт Казахстана // журнал «Аккредитация в образовании», 21.07.2020 г.
2. <https://lex.uz/docs/5085999>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son qarori.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI.

*Sodikova Firuza Ibodullayevna*

*Navoiy viloyati Karmana tumani*

*30-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*Annotatsiya. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.*

***Kalit so'zlar.** Venn diagrammasi, Texnologik xarita, Interfaol metod, motiv, metod, Pedagogik texnologiyalar, innovatsion faoliyat.*

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir.

Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga

undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholasdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakkam ehtiros bo'ladi.

Darsning oldindan loyihasi, ya'ni texnologik xaritasi tuziladi. Texnologik xarita tuzish uchun o'qituvchi darsning har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar, ularda o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish yo'llari, teskari aloqani amalga oshirish, ularga ajratilgan vaqtni aniq belgilash lozim. Texnologik xaritada albatta tashkiliy qism, yangi mavzuning motivatsiyasi, o'quvchilar bilimini tekshirish, yangi mavzuni o'rganish va uni mustahkamlash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va yakun yasash kabi bosqichlari bo'ladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchining dars davomida bajaradigan ishlari bosqichma-bosqich qayd etiladi. Dars texnologik xaritasining mukammal tuzilishi, maqsad va vazifalarini amalga oshirish, samaradorlikka erishish va bosqichlar

o‘rtasidagi uzviylikni ta‘minlash, vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi.

“Baliq skeleti” texnologiyasi. Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo‘lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo‘llari yozib boriladi. Masalan, yo‘l harakati darslarida “Yo‘l qoidalari” mavzusida “Svetofor nima uchun kerak?” muammosi qo‘yilsa, bolalar o‘z fikrlari bilan baliq skeletini boyitib boradilar. Bu usul orqali o‘quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o‘rganadilar.

“Venn diagrammasi” Ushbu texnologiya ona tili, o‘qish darslarida o‘tilayotgan mavzu haqida o‘z fikriga ega bo‘lish, matn bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlash, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon etish, hamda dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

---

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o‘tilgan darsda o‘quvchilar o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo‘ladilar, o‘z g‘alalar fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta‘lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

16. “Barkamol avlod yili” Davlat Dasturi. – T.: O‘zbekiston, 2010.
17. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Qarshi: Nasaf, 2011.
18. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

**BUYUK TARIXGA BIR NAZAR**

Guliston davlat universititi Pedagogika fakulteti

``Boshlang'ich ta'lim`` 106-20-guruh talabasi

**O`razboyeva Diyora**

Ma'naviyatini tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta tarixiy xotira kerak. Tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday insonlarni yuldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustaxkamlaydi".

Islom Karimov

***Annotatsiya:** ushbu maqola jonajon Vatanimizning buyuk tarixi yoritilib o'tilgan, tarimiz qanchalar buyukligi va bizga g'urur bag'ishlaydigan ulkan ishlar qilinganligi, o'rnak olishimiz shart bo'lgan bobolarimiz haqida ham fikr bildirilgan. Tarixiy xotirasiz albatta kelajak bo'lmaydi.*

***Kalit so'zlar:** ma'naviyat, tarix, xotira, qabilalar, kelajak, mustaqillik, qaramlik, haqiqat, aqidalar, ur-odatlar.*

***Аннотация:** В данной статье рассказывается о великой истории нашего родного края, о величии нашей истории и великом проделанном деле, которым мы гордимся, а также о наших предках, за которыми мы должны следовать. Без исторической памяти нет будущего.*

***Ключевые слова:** духовность, история, память, племена, будущее, независимость, зависимость, правда, верования, обычаи.*

***Annotation:** This article covers the great history of our native land, the greatness of our history and the great work done that makes us proud, as well as our ancestors, whom we should follow. There is no future without historical memory.*

***Keywords:** spirituality, history, memory, tribes, future, independence, dependence, truth, beliefs, customs.*

TARIX — tabiat va jamiyatdagi har qanday o'zgarish va rivojlanish jarayonini ifodalovchi atama; insoniyat va uning hayoti, avlodlar almashuvi, sivilizatsiyalar, jamiyat va davlatlar shakllanishi, o'tmishi va taraqqiyoti bilan bog'liq jarayonlarni o'rganuvchi fan. Prezident I.Karimov tarixning ma'naviyatda tutgan o'rniga yuksak baho bergan: "Ma'naviyatini tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak... Kim bo'lishidan qat'i nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Inson uchun tarixidan judo bo'lish — hayotdan judo bo'lish demakdir... Bu g'oyaning zamirida xalqimizning o'zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas". Tarix fani — insoniyatning butun o'tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo'lgan voqea, hodisa va jarayonlarni yaxlit tarzda o'rganadi. Bu fan ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, siyosatshunoslik, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, san'atshunoslik) tizimining tarkibiy qismiga kiradi. Turli ijtimoiy va gumanitar fanlar inson va jamiyat hayotining alohida jihatlarini o'rgansa, tarixning tadqiqot mavzui — aholi, jamiyat, mamlakat, davlat hayotining o'tmishi va hozirgi davri xususidagi dalil va ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, to'plangan bilimlarni ma'lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan, umumlashtirishdir. Tarix fani moziyda sodir bo'lgan voqea, hodisa va jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantig'i va ma'nosini ko'rish imkonini beradi. Qachon, qayerda, qanday sababga ko'ra qanday voqea-hodisa yuz bergan, oqibati nima bilan yakunlangan, uning bizga, hozirgi zamonga qanday daxli, ahamiyati bor, degan savollarga javob topish orqali biz tarixdan saboq olamiz, uni anglaymiz. Inson, jamiyat va davlatni tanazzulga olib keladigan yo'llardan esa voz kechamiz. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tabiiy bilim sohalari ham tarix tadqiqotlari natijasiga tayanadi.

Vatanimiz tarixiga nazar tashlasak, uning turli voqealarga boy bo'lganligini ko'ramiz. O'zbekiston tarixi juda qadimdan shakllanib kelgan. Tariximiz

voqealarga boy b'lishi bilan bir qatorda juda ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirgan. Bu qiyinchiliklarni sanayversak uning cheki yo'q. Ahamoniylar bosqiniyu, Iskandar Zulqarnayin hujumlari, Arablaru, Mo'g'illar va keyinchalik Chor Possiyasining zulmlari. Shu bosqinlarga qaramasdan o'zbek xalqi o'zining borlig'i, urf-odatlarini, an'analarini, hamma- hammasini saqlab qola oldi. Har bir bosqinga qarshi ajdodlarimiz shunday janglar olib bordiki ta'riflashga til ojizlik qiladi. Bu bosqinlarga qarshi ko'plab jasur va mard ajdodlarimiz mardonavar jang olib borishgan.

Massagetlarning jasur malikasi To'maris, sak qabilasidan bo'lgan mard yigiti Shiroqning jasorati, Iskandarga qarshi so'g'd o'g'loni Spitamenning ko'rsatgan ajoyib jasorati, Arablarga qarshi Muqanna, Mahmud Tarobiy, Mo'g'illarga qarshi Xorazim o'g'lonlari Sulton Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik jasoratlarini aytib o'tish mumkin. Bular ichida buyuk Sohibqiron Amir Temurning qilgan ishlarini alohida aytib o'tish mumkin. U o'zbeklarning elat bo'lib shakillanishida katta yo'llarni ochib berdi. Birinchi navbatda u vatanimizni mo'g'illardan tozaladi va Movaraunnahr va Xurosonda buyuk davlatga asos soldi. Bulardan tashqari vatanimiz hududidan ko'plab buyuk davlat arboblari, buyuk mutaffakkirlar, olimlar, shoirlar etishib chiqqan. Ular jahon sivilizatsiyasining rivojiga katta hissa qo'shgan. Bular ichida Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Al-Farobiy, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy Alisher Navoiy Zahriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ijodini alohida aytib o'tish mumkin. Xorazmiy o'zining "œAl-jabr Val Muqobala" asari bilan algebra faniga asos soldi. Beruniy esa dunyoda birinchi bo'lib erning dumaloq ekanligini isbotlab berdi va globusni yaratdi. Ibn Sino esa o'zining "Tib qonunlari" kitobi bilan dunyoga mashxurdir. Alisher Navoiy qilgan ishlarni vatanimiz balki jahonda ham ko'plab odamlar biladi deb aytsak ham xato qilmagan bo'lamiz. U o'zbek tilini yaratdi va o'zbeklarning hech kimdan kam emasligini isbotladi. Bularni sanayversak cheki yo'q.

Biz ajdodlarimizning qilgan ishlaridan faxrlansak arziydi. Biz ulardan o'rnak olishimiz va ularday vatanparvar, erksevar va vatan uchun hamma narsaga tayyor

bo'lishimiz kerak va avlodlarga o'rnak bo'lishimiz zarur. Biz tariximizni ko'z qorchig'day asrashimiz va ularni to'laligicha kelgusi avlodlarga etkazib berishimiz shart va zarurdir.

Vatanimizda yashayotgan har bir inson millatidan, dinidan qat'iy nazar tariximizni bilishi kerak. Tarixni bilmagan insonning kelajagi ham bo'lmaydi. Tarixni bilmaslik bu o'zligini bimaslik degani. Tarixni bilgan insonning kelajagi porloq va sokin bo'ladi.

Shunday ekan har-birimiz tariximizni o'rganaylik va uning ochilmagan qirralarini topib xalqimizga havola qilaylik va ajdodlarimizni ham tarixni bilishga undaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Ma'naviyat asoslari. V. Qo'chqorov, O. Mahmudov, Z. Zamonov .  
Toshkent "Yangiyo'l poligraf servis".
2. Milliy istiqlol g'oyasi. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lim Vazirligi.  
Toshkent "Ma'naviyat" 2015.

**MUZEYLAR ELEKTRON ARXIVLARGA MUHTOJ****Tayrov Kudiyar Baxtiyar uli.**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti magistranti

Raqamli texnologiyalar keng tarqalishi bilan barcha muzey ishlari jadalroq davom etadi. Matnli ma'lumotlar bazalari, rasm kataloglarini shakllantirish va keyinchalik ularni mashinada o'qiladigan shaklga o'tkazish bugungi kunda rejalashtirilgan muzey faoliyatining zaruriy qismidir. Ta'kidlash joizki, bunday tizimlar muzeylar rivojlanishining o'ziga xos katalizatoriga aylandi. Hujjatlar va eksponatlarni raqamlashtirish muzeyga madaniy merosni saqlash, hisobga olish va tashrif buyuruvchilar bilan o'zaro munosabatlarni yangi zamonaviy darajaga olib chiqishga imkon beradi. Hujjatli, yodgorlik dalillari va estetik qadriyatlarni to'plash va saqlash borasida insoniyat birinchi tajriba o'tkazgan paytdan to hozirgi kungacha muzeyning vazifasi o'zgarishsiz qolmoqda. Texnologik taraqqiyot muzey sohasida inqilob qilmaydi, balki unda sodir bo'layotgan jarayonlarga yangi turtki beradi. Raqamli texnologiyalarning tarqalishi bilan barcha muzey ishlari yanada jadallashadi.[1]

Axborot va kompyuter texnologiyalari tarixi muzeyi. besh yil oldin, 800 ga yaqin Rossiya muzeylari axborot tizimlari bilan jihozlangan va elektron hisobga olish ma'lumotlari, shuningdek, hujjatlar va madaniy meros ob'ektlarining raqamli tasvirlariga ega bo'lgan raqamli hujjatlarni yuritishni boshlagan. "Rossiya muzeylarini axborotlashtirishning boshlanishi barcha muzey xodimlari o'zlarining amaliy faoliyatida foydalanishlari mumkin bo'lgan axborot-ma'lumot tizimlarini yaratish edi. O'n besh-yigirma yil oldin ko'plab muzey xodimlari barcha kitoblarni elektron shaklga o'tkazish mumkinligiga shubha bilan qarashgan va siz muzeyda nafaqat qancha qimmatbaho buyumlar, balki aniq nima ekanligini ham aniq bilishingiz mumkin", deydi direktor o'rinbosari Aleksandr Dremailov.[2]

Matnli ma'lumotlar bazalari, tasvirlar kataloglarini shakllantirish va ularni keyinchalik mashinada o'qiladigan shaklga tarjima qilish bugungi kunda rejalashtirilgan muzey faoliyatining zarur tarkibiy qismidir. Aytish joizki, bunday

tizimlar muzey rivojlanishining o'ziga xos katalizatoriga aylandi. Hujjatlar va eksponatlarni raqamlashtirish muzeyga madaniy merosni asrab-avaylash va hisobga olish faoliyatini ham, tashrif buyuruvchilar bilan muloqotni ham yangi zamonaviy bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Biz muzeyga tashrif buyuruvchilar uchun barcha fondlarni jismonan ochib bera olmaganimiz uchun bizga elektron ekspozitsiya yordamga kelishi kerak, uning asosi raqamlashtirilgan ko'rgazmalar. Boshqa Davlatlarda (Rossiya, Buyuk Britaniya) davlatlarda esa elektron kontent yaratish bo'yicha ishlar qizg'in davom etmoqda. Ammo biz davom etishimiz va doimiy ish uchun elektron arxivga ega bo'lishimiz kerak. Bunday tizim nafaqat yozuvlarni yuritish, balki eksponatlar tasvirlari, raqamlashtirilgan kitoblar va hujjatlarni saqlashni ham o'z ichiga oladi. Muzeyga nafaqat ma'lumotlarni qo'lda olish, balki muzey xodimlari va tashrif buyuruvchilar manfaati uchun butun muzey axborot resursini boshqarish imkonini beruvchi platforma kerak.

#### **Foydalanilgan Adabiyotlar**

[1] <https://www.edok->

[journal.ru/articles/kultura/muzeyam\\_nuzhny\\_elektronnye\\_arkhivy/](https://www.edok-journal.ru/articles/kultura/muzeyam_nuzhny_elektronnye_arkhivy/)

[2] [https://edok-journal.ru/articles/kultura/muzeyam\\_nuzhny\\_elektronnye\\_arkhivy/](https://edok-journal.ru/articles/kultura/muzeyam_nuzhny_elektronnye_arkhivy/)

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MATNNI O‘QISH VA TUSHUNISH SAVODXONLIGI

**Xoliqova Oyistaxon, Andijon viloyati**

Paxtaobod tumani 1-maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari darslikda keltirilgan badiiy va axborot matnlariga qo‘shimcha PIRLS xalqaro baholash dasturlarining talablariga muvofiq keluvchi topshiriqlarni ilova qilib, ularni bajarish orqali tayyorlashdir*

***Kalit so‘zlar:** innovatsiya, ijodkorlik, baholash, savodxonlik, ko‘nikma*

O‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida bugungi kunda Respublika xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqlarni o‘rnatishgajuda katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda 2018-yil 8-dekabrda Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Qarori qabul qilindi. Qabul qilingan Qaror asosida O‘zbekiston Respublikasi 2021-yilda Xalqaro baholash dasturi bo‘lmish PIRLSda ishtirok etishi rejalashtirilgan.

Tadqiqotda asosan o‘quvchilarning dars vaqtidagi va maktabdan tashqari vaqtdagi ikki turdagi o‘qish savodxonligi, ya‘ni o‘quvchilarda badiiy o‘qish savodxonligi ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirish hamda axborotni o‘zlashtirish va ulardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirish baholanishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, PIRLS xalqaro baholash dasturida berilgan matnlar asosida o‘quvchilar badiiy va axborot matnlarini o‘qish qobiliyatlari quyidagi to‘rt guruhda baholanishi aytib o‘tilgan:

- Aniq shaklda berilgan matndan ma‘lumot topish;
- Matnning mazmunini, til xususiyatlarini va tuzilishini tahlil qilish va baholash;

- Axborotni umumlashtirish va talqin qilish;
- Berilgan matndan xulosa chiqarish.

Yuqoridagi talablarni inobatga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini 1-sinfdan boshlab ushbu jarayonga tayyorlab borish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yo'nalishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslikda keltirilgan badiiy va axborot matnlariga qo'shimcha PIRLS xalqaro baholash dasturlarining talablariga muvofiq keluvchi topshiriqlarni ilova qilib, ularni bajarish orqali tayyorgarlik jarayonini olib borishlari juda muhimdir. Masalan, 3-sinf "O'qish kitobi" da quyidagi matn berilgan bo'lib, eng avvalo, o'quvchilardagi o'qish savodxonligi darajasini aniqlashdan oldin ushbu matnni bir necha marotaba ifodali tarzda o'qish talab etiladi. So'ng matn bilan bog'liq bo'lgan quyidagi topshiriqlar ilova qilinadi.

### **Vatan himoyachisi**

*Maktabgacha ta'lim muassasasi bolajonlarning qiy-chuvi bilan gavjum. Tarbiyachi Donoxon opa jajjilar bilan qiziqarli bir ertakni sahnalashtirish maqsadida bolajonlarga murojaat qilmoqda:*

*- Bolajonlar, hozir biz bo'ri, fil, to'tiqush rolini o'ynaydigan bolalar va qizlarni tanlab oldik. Endi tulki roli uchun qatnashchilarni tanlasak bo'ldi. Xo'sh, Jasurbek, sen ham rollarni yaxshi o'ynaysan. Kel, tulki rolini o'ynay qol.*

*- Yo'q, -deya e'tiroz bildirdi Jasurbek shu zahotiyuq.*

*- Nega? – ajablanib so'radi tarbiyachi boladan.*

*- Chunki tulki yolg'onchi, qo'rqoq. Men uning rolini o'ynamayman.*

*- Axir bu ertak-ku, kel, shu safar Tulki bo'la qol, - iltimos qildi bog'cha opasi Jasurbekdan. Bolakay esa "Yo'q!" – deb turib oldi.*

*- Unda qaysi jonzotning rolini o'ynaysan – qiziqishi ortib so'radi tarbiyachi yana.*

*- Men, - dedi o'rnida turib Jasurbek o'z ismiga xos jasurlik va qat'iyat bilan, - qo'rqoq, dovyurak, o'rmondagi jonzotlarni himoya qiladigan Sher bo'laman, - dedi.*

*Shunday qilib, spektakl juda ham qiziqarli sahnalashtirildi. Uni tomosha qilga ota-onalar, tarbiyachilar va mehmonlar rosa xursand bo'lishdi.*

*Bundan Jasurbekning ham ko'ngli ko'tarildi. Chunki u sher vazifasini qoyilmaqom qilib bajardi. O'rmonga begonalarni kiritmadi. Bo'ri bilan olishib, uni yengdi. Barcha sherlarni birlashtirib, Fildan ham zo'r chiqdi. Aldoqchi Tulkining gapiga ishonmadi. Yolg'onchiligini fosh qildi.*

*Oradan yillar o'tdi. Jasurbek oliy harbiy bilim yurtida a'lo baholarga o'qidi. Sport bilan muntazam shug'ullanib, karate bo'yicha jahon chempioni bo'ldi. Oliy qo'mondonlik akademiyasida ham tahsil oldi.*

*Hozirda Jasurbek – general. Armiyaga qo'mondonlik qiladi. Uning rahbarligidagi minglab askar va zobitlar Vatanimiz chegaralarini qo'riqlaydi. U o'z yurtini sevuvchi sheryurak inson, Vatani uchun jonini berishga ham tayyor.*

1. Ushbu voqea qayerda bo'lib o'tdi?
  - A. Umumta'lim maktabida
  - B. Maktabgacha ta'lim muassasasida
  - C. Teatrda
2. Matnda tarbiyachining ismi nima edi?
  - A. Lolaxon
  - B. Donoxon
  - C. Matnda tarbiyachining ismi berilmagan
3. Tarbiyachining bolalarga bo'lgan iliq munosabatini matndagi qaysi holat ochib beradi?
  - A. Tarbiyachi Jasurbekni yaxshi ko'rmas edi, shuning uchun unga Tulki rolini o'ynashni topshirmoqchi bo'ldi.
  - B. Tarbiyachi bolalarni yaxshi ko'rar edi, chunki ularga “Bolajonlar” deya murojaat qildi.
  - C. Tarbiyachi bolalar bilan ertak sahnalashtirmoqchi bo'ldi.
4. Tarbiyachi Jasurbekka tulki rolini o'ynashni taklif qilganda nima uchun Jasurbek uni rad etdi?
  - A. Tulki qo'rqqoq, yolg'onchi bo'lganligi uchun.
  - B. Jasurbek tulki rolini o'ynashni eplay olmas edi.
  - C. Jasurbek tulki rolini o'ynashga jon deb rozi bo'ldi.

5. Matnda keltirilgan zid ma'noli tushunchalar qaysilar?
6. Ertakni sahnalashtirishda yana qanday qahramonlar ishtirok etishi lozim edi?
7. Matnda keltirilgan Jasurbekning ismiga xos bo'lgan jihatlarni yozing.
8. Matnda Sherning qanday xislatlari keltirilganligini yozing.
9. Hozirda Jasurbek qanday unvonga ega?
10. Jasurbekning javobidan nimani tushundingiz?
11. Hikoya so'ngida Jasurbekka sher hayvoni bilan bog'liq bo'lgan qanday sifat berilgan edi?
12. Hikoya matni orqali "Bir yigit – bir elga rizq" maqolini izohlashga harakat qiling.  
Har bir matnga bunday yondashuv o'quvchilarning o'qib tushunish malakalarini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalqaro baholash tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari" 997-sonli Qarori.
2. X. P. Ahmedov. PIRLS matni o'qish va tushinish savodxonligi sifatini baholash bo'yicha xalqaro baholash dasturi. 2019-yil 26-noyabr.
3. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. 4-nashri. –T.:O'qituvchi, 2019.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH

**Zaynobiddinova Shaxnoza Sobirjonovna,**

Andijon viloyati Oltinko'l tumani 5- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annotatsiya: integrativ darslarda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish*

*Kalit so'zlar: o'quv dastur, darslik, uzviylik, mul'timedia, metodik qo'llanma, bilim, malaka, kompetensiya.*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli qarori "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida". Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalarini, asosiy prinsiplarini, tarkibiy qismlarini, davlat ta'lim standartlarini joriy etish hamda davlat ta'lim standartlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi. Bugungi kunda malaka oshirish ta'lim tizimida ona tili o'qitish metodikasini takomillashtirish ko'zga tashlanadi. Bunday ishlar jumlasiga o'quv materiallarini tanlash va takomillashtirish printsiplari, savod o'rgatish, ona tili darslarida ilmiy metodik yondashilganligi, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishi va darslarda taxlil qilish uchun alohida e'tibor qaratilgan. Islohotlar jarayonida darsliklarda berilgan o'quv materiallarining tarkibi, mazmuni va ularni takomillashtirish printsiplari ham yangidan belgilab berilishi lozim. Maktab ta'limini takomillashtirish munosabati bilan o'quvchilarga taqdim etiladigan o'quv materiallari va ularni o'zlashtirishga sarflanadigan vaqtini qisqartirish nazarda tutiladi. Biroq o'quv materiallari hajmini qisqartirish o'quv predmeti yoki o'quv kursi mazmunini ilmiy jihatdan sayozlashtirishga olib kelmasligi kerak. Shunga ko'ra o'quv materiallarga yondashilganligi asosida takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan yondashilganda, ta'lim mazmunini integratsiyalash jarayonida muayyan o'quv predmeti bo'yicha o'quv materiallarini tanlash va ularni tizimlashtirish printsiplari asosida strukturalash muhim didaktik ahamiyatga ega. Bu o'quv materiallarini tanlashga asos bo'lgan

kompetensiyaviy yondashuv printsiplari aniq yoritilganligi ko'rsatib o'tilgan. Chunki ta'lim jarayoniga texnologik va kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq qilishda o'quv materiallarini aniq printsiplarga tayangan holda tanlash va strukturalashtirish muhim o'rin egallaydi. Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limi o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni hal etishni ko'zda tutadi:

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik – semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiladi. Ona tili o'qitishning mazmuni va metodlari o'quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko'nikma va malakalar hosil qilishga ko'maklashishi lozim. Maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang – barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o'zbek tilidan bimalol – erkin, samarali va to'g'ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to'laqonli bahramand bo'lish, zaruriy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak.

«Ona tili» darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish lozim. Shuning uchun o'quv dasturi va u asosida yaratiladigan darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishning maqsadi – o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi: o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon

qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o`quvchilarda grammatikaga oid bilimlarini (fonetika, leksikologiya, so`zning tarkibi, so`z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o`qigan, ko`rgan, eshitganlarini nutqiy to`g`ri va ravon bayon eta olish ko`nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Ona tili fanining o`quv dasturi o`quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo`naltirilgan Davlat ta`lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzilgan. Xulosa qilib aytganda integrativ yondashuv asosida boshlang`ich sinf o`qituvchilarini malakasini oshirish va kompetensiyalarni takomillashtirishda– o`quvchilarning savodxonligini ta`minlash, og`zaki va yozma nutqida adabiy nutq me`yorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat.

### **Adabiyotlar**

1. O`zbekisto Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Umumiy o`rta, o`rta maxsus kasbhunar ta`limining davlat ta`lim standartlari”. -Toshkent 2017yil
2. Qosimova K., Matjonov S., G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o`qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
3. G`ulomova X., Yo`ldosheva SH., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o`qitish metodikasi. –T.: TD`U, 2013. – 70 b.
4. Matchanov S., G`ulomova X., Yuldasheva SH., A. Nisanbaeva. Ana tilin oqqtu edistemesi.–T.: TD`U, 2013. –277 b

## TIL MADANIYATI ADABIY MEROS

**Zulfiya Asamatdinova**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti

***Annotasiya:** Maskur maqolada til bu har bir millatning bebaho boyligi, ota-bobolarimiz asrlar davomida ona tilimizni avaylab, uning taraqqiyoti uchun kurashib kelganliklari va til haqida buyuk mutafakkir bobolarimiz fikrlari haqida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Til madaniyati, adabiy meros, millat, til va taraqqiyot.*

Til kishilar orasida aloqa aralashuv vositasidir. Har bir millat o‘z hayoti davomida bir tildan foydalanadi. Chunki til millatni millat sifatida namoyish etadigan asosiy quroldir. Ota-bobolarimiz asrlar davomida ona tilimizni avaylab, uning taraqqiyoti uchun kurashib kelganlar. Buyuk mutafakkir bobolarimiz Alisher Navoiy, shoh va sarkarda Z.M.Boburlarning hayot yo‘llari, ijodiy faoliyatlari, adabiy meroslari bunga yaqqol misoldir. Til bu har bir millatning bebaho boyligi hisoblanib, uning rivoji taraqqiyoti, ravnaqi uchun har bir fidoyi insonlar bir tan bo‘lib kurashadilar.

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidir. O‘zbek tiliga 1989-yil 21-oktabrda Davlat tili maqomi berilgan. Shu kundan boshlab bu tilga e‘tibor kuchaydi. Ayniqsa, shoir va yozuvchilar o‘z ijodlarida bu tilning muqaddas va bebaho ne‘mat ekanligini tarannum etdilar. Maktabda o‘qituvchilar bu tilning yagonaligini, uning muqaddas timsolimiz ekanligini o‘quvchilarga keng targ‘ib qilmoqdalar. Ma‘rifatparvar adibimiz Mahmudxo‘ja Behbudiy “Maktab–dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlisidir. Maktabning chin va haqiqiy ma‘nosini bilgan millatar jonlari, mollari ilan himmat va g‘ayratlarini sarf etib, millatning taraqqiyi rivojiga ijti hod qilurlar” deganida haq edilar. Chunki maktab ilm o‘chog‘idir. Maktabda ona tilini o‘quv fani sifatida o‘qitish tilimizning ahamiyatini oshiradi. Maktabga kelgan bola ilk tasavvurlarini, ichki kechinmalarini o‘rganayotgan til vositasida yuzaga chiqaradi. U atrofdagilarni, mahalla ahlini, maktabdoshlarini, sinfdosh o‘rtoqlarini, ustozlarini, eng muhimi

o‘zini ana shu til yordamida taniydi. Chunki til kishilarning eng muhim aloqa - aralashuv va fikrlash qurolidir. Til barchaga barobar xizmat qiladi. Ana shu tilni mukammal o‘rganib, uning barcha qonuniyatlarini to‘g‘ri o‘zlashtirilsa, jamiyat uchun juda foydalidir. Til orqali butun jamiyat boshqariladi, shuning uchun til inson faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib millatning o‘ssishi, uning ravnaqi, rivoji uchun ham xizmat qiladi. Til o‘rganish orqali inson dunyoga chiqadi. Buning uchun esa tilga oid bilimlarni chuqur o‘rganish lozim. Buyuk faylasuf olim Deni Didro aytganidek, odamlar o‘qishdan, til o‘rganishdan to‘xtasalar, fikrlashdan ham to‘xtaydilar. Demak:

*Kimki o‘rganishni uyat, or demas,  
Suvdan dur topadi, toshdan la‘l, olmos. (Nizomiy Ganjaviy)*

O‘zbek xalqi uzoq tarixga ega bo‘lib, tarixiy millat hisoblanadi. Buyuk mutafakkirlarimiz shu tilning taraqqiyoti uchun o‘z fidoyiliklarini namoyish etishgan. Xususan, Alisher Navoiy o‘zbek tilining so‘zga boy ekanligini o‘zining asarlari orqali isbotlab bergan. Shuningdek, hozirgi kunga qadar biz o‘rganib kelayotgan ijodkorlarimiz yaratgan o‘zbek tilidagi asarlari millatimizning sha‘ni, g‘ururi faxridir. ”O‘tgan kunlar”, ”Mehrobdan chayon”, ”Kecha va kunduz”, ”yulduzli tunlar” kabi bir qator noyob asarlarning tili, uslubi o‘zbek millatining qay darajada buyuk millat ekanini ifodalovchi meros hisoblanadi. Mana shunday qadriyatlarimizni o‘quvchilar ongiga singdirish, ularning qalbida vatanga, milliy tilimizga nisbatan mehr va muhabbatni uyg‘otish adabiyot o‘qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi va bunday mas‘uliyatli vazifani har bir adabiyot o‘qituvchisi sidqidildan bajarib kelmoqdalar. O‘quvchilarga til o‘rgatish, ularni haqiqiy vatanparvar, fidoyi qilib tarbiyalashda ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining xizmatlari juda katta. Shunday ekan, ajdodlarimiz merosini chuqur va qunt bilan o‘rganishdan charchamaylik. yosh avlodni ajdodlarimizga munosib farzandlar etib tarbiyalab, tilimizning rivoji uchun o‘z hissamizni qo‘shaylik. Ularning faoliyatlari biz uchun ibrat bo‘lsin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jamolhonov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent “Talqin” 2005 yil
2. Ne‘matov H. Til va nutq. Toshkent “O‘qituvchi” 1993 yil

**O'ZBEK AYOLINING MUKAMMAL SIYRATI.**

Guliston davlat universititi Pedagogika fakulteti

``Boshlang'ich ta'lim`` 105-20-guruh talabasi

**Pardayeva Sevara**

Uning jahon manbalarida yangragan she'rlari sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik muhabbat va sadoqatdan saboq bergan.

Islom Karimov

***Annotatsiya:** ushbu maqolada yurtimizning go'zal va ijodkor shoirasi Zulfiyaxonim Isroilova haqida ma'lumotlar, u insonning qilgan ishlari, olib brogan go'zal ijodi haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:** vafo, sadoqat, she'riyat, muhabbat, mushoira, hayot, nafas, saboq, kitobxon, adabiyot.*

***Annotation:** This article provides information about the beautiful and creative poetess of our country Zulfiyaxanim Israilova, her work, her beautiful work.*

***Keywords:** fidelity, devotion, poetry, love, poetry, life, breath, lesson, reader, literature.*

***Аннотация:** В данной статье представлена информация о прекрасной и творческой поэтессе нашей страны Зульфийханум Исраиловой, сделанной ею работе, прекрасном деле, которое она несла.*

***Ключевые слова:** верность, преданность, поэзия, любовь, поэзия, жизнь, дыхание, урок, читатель, литература.*

Zulfiya she'riyati XX asr o'zbek adabiyotida yangi sahifa ochgan, uning bo'y-bastini ko'rsata olish qudratiga ega bo'lgan, kitobxonga vafo va sadoqat, mehr va muhabbatdan saboq beruvchi she'riyatdir. Bu she'riyatning mavzu va talqin doirasi juda katta qamrovga ega bo'lib, biz unda o'z Vatanini sevish, o'zbek ayolining shonli hayot yo'lini ulug'lash, bani-basharda tinchlik-omonlikni orzu qilganlar mushoirasi bilan birga, muhim hayotiy muammolar va insoniy dardu kechinmalar tasvirini ham ko'ramiz. Bularning barchasi shoira she'riyatidagi g'oyaviy yuksaklik,

dilbarlik va pokizalik, teran ma'no-mazmunga ega bo'lgan xususiyatlar jarayonida yuzaga chiqadi.

She'riyatidagi ana shunday hayotbaxshlik va vatanparvarlik fazilatlari, yurtning ma'naviy hayotidagi fidoyiligi uni o'z xalqining sadoqatli qiziga va shoirasiga aylantirdi.

Hayotni o'zining yuksak ma'naviyati va ayolga xos nazokatli nigohi bilan kuzatib yashagan shoiramiz inson hayotida sodir bo'ladigan sevinchli va g'amgin holatlarga ro'baro' keldi, hayot sinovlari va to'fonlari oldida qaddi bukilmadi, o'z taqdirini ona xalqi taqdiri bilan bog'liqlikda his qildi, uning izzat-ikromiga muyassar bo'lganligi uchun shukronalar keltirdi. Shoira she'riyatning barcha janrlarida qalam tebratdi. Bu ijod namunalari aksariyati kitobxonlar tomonidan adabiyotimizdagi yangilik (noyob hodisa) sifatida qabul qilindi va ilmiy-adabiy jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'ldi. Men bu o'rinda shoira "Hijron kunlarida", "Seni kuylayman, hayot", "Yillar va o'ylar", "Shalola", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Uni Farhod der edilar", "Mushoira" turkumlari va dostonlarini alohida qayd etgim keladi.

Aytish joizki, shoira "Hijron kunlarida" turkumidagi she'rlari bilan o'zbek she'riyatida yangi yo'nalishga – inson hayotining fojiviy talqiniga asos soldi. Xususan, "Bahor keldi seni so'roqlab", "Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?", "O'rik gullaganda" kabi she'rlarida lirik qahramon ruhiyatining rangin holatlarini – g'am va iztirob kechinmalarini ham, ayriliq va sog'inchga to'lib toshgan dilgirlik kayfiyatlarini ham, neki inson zotiga xos bo'lgan his-tuyg'ularni ham, sabr-bardosh va jasoratni ham ko'ramiz. Eng muhimi, bu she'rlardagi hijron motivlari kitobxonni inson taqdiri bilan bog'liq bo'lgan hayot murakkabliklarini, uning bardavomligini tushunishga yordam beradi va kuch-qudrat bag'ishlaydi:

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,  
 Hayotni kuylayman, chekinar alam  
 Tunlar tushimdasan, kunduz yonimda,  
 Men hayot ekanman, hayotsan sen ham

Shoironing hijron ohanglari tasvirlangan she'rlaridagi lirik qahramonning faryod hasratlari ifodalangan misralari go'yo kitobxon qalbiga Hamid Olimjon asarlaridagi latif tuyg'ularga limmo-lim to'la tasvirlarni ko'chiradi, ko'z o'ngida shoir siymosini gavdalantiradi va, aytish mumkinki, shoir she'rlariga o'ziga xos yangicha umr ato etadi. Kitobxon bu she'rlarning intihosigacha lirik qahramon bilan birga bo'lib, jo'shqin hissiyot va o'tkir dramatik tasvir ta'siridan, sog'inch va iztiroblar girdobidan chiqib keta olmaydi.

Shoira she'rlarida "hayot nafasi shovullab", "insonlar yuragi lovullab" turishi, jahon xalqlari bilan qardoshlik tuyg'ulari, ijodkorning jamiyat va xalq oldidagi mas'uliyati falsafiy va jahoniy talqinda berilishi ham noyob iste'dodning bir xususiyati edi. Ana shunday xususiyat faqat va faqat Zulfiyaga xos shoirona haroratga boy misralar: "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Yuragimga yaqin kishilar", "Yurtim xaritasi – mening yuragim", "Mushoira" kabi asarlarining ham mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Istiqlol yillarida – umri poyonida yaratilgan asarlari shoira ijodining ham, keyingi yillar o'zbek she'riyatining ham noyob sahifasi bo'lib qoldi. Xususan, "Sharqning o'zi ona bo'lgan hamisha" (1993) nomli dostonida shoira o'z umri davomida xalqining o'zligini, yurtining ko'rkini, yozib ulgurmagan armonlarini bayon etar ekan, o'ziga xos badiiy tafakkurda xalqimizning boshqalarga qaram bo'lmagani va uning farzandlari salohiyatining jahon tamadduniga qo'shgan hissasini tariximizdagi shonli sahifalarga bezangan holda o'quvchi ongi-shuuriga yetkazadi. Shoironing istiqlool yillaridagi ba'zi she'riy lahzalarida lirik qahramon qalbida sobiq tuzumdagi "hamma qonunlarning ustidan chizib" tashlash isyonkorligi yuzaga chiqsa, ba'zi misralarida "Axtarib topardim har bosgan izim. Bekor o'tganiga baxsh etardim jon", degan afsus-nadomatlar yetakchilik qiladi. 1995 yilda yozilgan "Iqrorga vaqt yetdi" nomli she'rida shoira yana bir bor yashab o'tgan umriga nazar tashlaydi, istiqlool tufayli xalq va mamlakat hayotida bo'layotgan yangilanishlardan ko'ngli quvonchga to'ladi, ajinlar iz solgan peshonasini istiqloolning hayotbaxsh qo'li silashiga iymon keltiradi. Mazkur asarlardagi poetik fikrlar "Xotiram siniqlari" (1995) dostonida yanada teran mazmun kasb etadi.

“Xotiram siniqlari” – adabiyotimizdagi benazir bir badiiy olam. Bu asar o‘zining shakli shamoyili, mazmun-mohiyati, tasvir va ifoda usuliga ko‘ra ham dostonchiligimiz janrida yangilikdir. Adabiyotshunos Umarali Normatov ta’biri bilan aytganda, Zulfiya opa bu dunyoga hijron turkumini va “Xotiram siniqlari”ni yaratish uchun kelganday tuyuladi. Ollohga hamdu sanolar bo‘lsinkim, shoiramizga istiqlol davrida yashash ne’matini ato etdi. “Xotiram siniqlari” Yaratganning ana shu marhamatiga shoiramizning ijodiy shukronaligidir. Shoira she’rlarining deyarli barchasida hayotning jonli tasviri gavdalanadi. Chinakam she’riy asar katta hayotiy muammolar va insoniy dardlar asosida tug‘iladi. Yuqorida to‘xtalganimiz “Hijron kunlarida” turkumidagi barcha she’rlarga hayotda sodir bo‘lgan mudhish voqea – umr yo‘ldoshi Hamid Olimjonning kutilmaganda avtohalokatga uchrab halok bo‘lishi voqeasi asos bo‘lgan. Ana shu voqea shoira she’rlaridagi mazmun-mohiyatni, ohang va obrazlar talqinini o‘zgartirib yubordi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Ma`naviyat asoslari. V.Qo`chqorov, O. Mahmudov, Z.Zamonov .  
Toshkent “ Yangiyo`l poligraf servis”.
2. Milliy istiqlol g`oyasi. O`zbekiston Respublikasi Xalq Ta`lim Vazirligi.  
Toshkent “Ma`naviyat” 2015.

## ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ВОЕННЫХ ДИСЦИПЛИН

**Джумашев Алишер Нишанбаевич**

старший преподаватель

**Турсунов С.Р.**

курсант

Университет общественной безопасности Республики Узбекистан,

+998903491828

***Аннотация:** В статье проанализированы задачи и требования к системе подготовки военных кадров. А также, рассмотрены положительные стороны использования информационных технологий в методике преподавания военных дисциплин.*

***Ключевые слова:** военные кадры, инновация, технология, методика преподавания, военные дисциплины.*

Во все времена считалось, что человек, получивший военное образование – это, прежде всего высокоинтеллектуальный, мужественный и культурный человек, лицо своей страны. И сейчас во многих странах одним из приоритетных задач и требований является поддержание на высоком уровне системы подготовки военных кадров. Например, в США считается, что выпускник военного колледжа должен быть в первую очередь высокоинтеллектуальным, широко образованным офицером, по многим параметрам, превосходящим выпускника любого из престижных 52 гражданских университетов [1]. И этому есть объяснение, ведь подготовка военного специалиста значительно отличается от подготовки гражданского специалиста, так как требует:

- одновременное становление отдельных сторон личности офицера (гражданина, защитника Родины, руководителя, организатора, воспитателя, общественного деятеля, носителя этнических ценностей и правовых норм);

- выработку надежности, как профессионала, так и руководителя организатора, что требует качественного выполнения заданий в условиях определенной сложности при устойчивом сохранении работоспособности и оптимальных рабочих параметров в реальных экстремальных условиях службы в армии;

- умение активно участвовать в интеграции Вооруженных Сил в экономическую, политическую, правовую и социальную систему общества;

- формирование моральной и психологической готовности к защите Отечества, Конституции и воинского долга;

- умение поддерживать воинскую дисциплину, обучать и воспитывать подчиненных.

Требования высокого уровня системы подготовки военных кадров ставятся и в Республики Узбекистан. В законе «Об Оборонной доктрине Республики Узбекистан» установлены принципиальные подходы и направления политики в области обороны и раскрытия задач вооруженных сил. Так, одним из основных направлений развития военной организации государства является:

- повышение качества военного образования и подготовки, переподготовки и повышения квалификации национальных военных научных и педагогических кадров [2].

Подготовка военных специалистов в условиях стремительного научно-технического прогресса требует от высшего военного образования активной интеллектуальной, творческой, с широким научным кругозором, высокопрофессиональной личности офицера, способного продуктивно и грамотно решать разнообразные задачи повседневной деятельности.

Глава нашего государства Ш.М. Мирзиёев указал, что главными критериями подготовки военнослужащего должны быть профессионализм, преданность воинскому долгу, высокие морально-нравственные качества защитника Отечества. Он также подчеркнул, что каждый командир обязан уметь оперативно принимать самостоятельные, всесторонне обоснованные

решения исходя из условий своих военных частей и округов, реальной боевой обстановки [3]. Это значит выпускник военного учреждения, будущий командир должен уметь оперативно мыслить, анализировать и делать выводы из явлений, т.е. должен быть компетентным и мобильным.

Для того, чтобы адекватно реагировать на современные вызовы, соответствовать духу времени, Вооружённым силам нужна новая формация динамичных военных кадров, непрерывно обновляющих багаж своих профессиональных знаний, умеющих жить и работать в инновационной среде. Именно формирование и воспитание творческих способностей должно стать целевой сущностью военного образования. Требования опережающего развития военного образования приобретают особую актуальность с учетом ускорения темпов научно-технического прогресса, оснащения Вооруженных Сил самым современным вооружением и военной техникой, использованием в армиях многих государств последних научных достижений, говорит о том, что необходимость использования инновационных технологий в военном образовании крайне высока. «Мы создаем самые современные условия в Академии и других учебных заведениях не для «галочки», а для того, чтобы наши курсанты и слушатели имели самые передовые, инновационные знания и навыки». Вот в чем заключается наша цель» – отметил Президент [3].

Президент также дал указание обеспечить качественную и полную реализацию принятых мер по совершенствованию деятельности Военно-технического института Национальной гвардии, который должен стать одним из лучших высших учебных заведений страны, готовящих высокопрофессиональные кадры для нашей армии, вплоть до резерва высшего командного состава [3].

Данные требования и их реализация невозможны без процесса внедрения информационных и коммуникационных технологий в сферу военного образования. Разрабатываемые компьютерные тестирующие и диагностирующие методики должны обеспечить систематический оперативный контроль и оценку уровня знаний обучающихся, повышение

эффективности обучения. Использование современных средств информационных технологий, таких как, электронные версии занятий, электронные учебники, обучающие программы является актуальностью для современного профессионального военного образования.

Рассматривая вопросы инновационных технологий в сфере военного образования нужно вначале дать определение словам «инновация» и «технология».

Инновация (от англ. «innovation») означает нововведение как результат практического (или научно-технического) освоения новшества.

Технология (от др. греч. τέχνη – искусство, мастерство, умение и λόγος – изучение, наука). В результате получается изучение мастерства, искусства, умения делать что-либо. В широком смысле – применение научного знания для решения практических задач [4].

Инновации в образовании – это актуально значимые и системно самоорганизующиеся нововведения, возникающие на основе разнообразия инициатив и новшеств, которые становятся перспективными для эволюции образования, позитивно влияют на развитие всех форм и методов обучения. Коротко говоря, это внедрение новых форм, способов и умений в сфере обучения, образования и науки.

Изучение инновационного опыта показывает, что большинство нововведений посвящены разработке технологий. За рубежом, прежде всего в США, интерес к образовательным технологиям возник в середине XX в., когда появились первые программы аудиовизуального обучения, т.е. обучения с помощью технических средств. Термин «образовательные технологии», появившийся в 1960-х гг., означает построение педагогического процесса с гарантированным результатом.

Главной целью инновационных технологий образования является подготовка человека к жизни в постоянно меняющемся мире. Сущность такого обучения состоит в ориентации учебного процесса на потенциальные возможности человека и их реализацию. Образование должно развивать

механизмы инновационной деятельности, находить творческие способы решения жизненно важных проблем, способствовать превращению творчества в норму и форму существования человека.

Использование компьютерных технологий в процессе обучения позволяет решать ряд задач:

- повышение интереса к изучаемому предмету;
- увеличение объема информации по дисциплинам военной подготовки;
- улучшение качества организации учебного процесса;
- использование индивидуального характера обучения;
- создание комплекса учебных пакетов, программ для систем виртуальной подготовки военного специалиста.

Всё вышеизложенное позволит сформировать личность будущего военного специалиста в условиях активного внедрения инновационных технологий в учебный процесс. Повысит качество военного образования.

Положительные стороны использования новейших разработок и информационных технологий:

- значительная экономия материальных ресурсов (боеприпасы, горюче-смазочные материалы, износ боевого оборудования, аппаратуры, техники и др.) на начальном этапе подготовки специалистов;
- современные компьютерные технологии позволяют максимально близко к реальности психологически подготовить военнослужащих к различным стрессовым ситуациям (дать различные виды экстренных ситуаций, травм, повреждений), симитировать функционирование любой боевой техники, дать различные варианты боевой обстановки;
- позволяет одновременно обучать неограниченное количество личного состава.

Таким образом, использование инновационных технологий в методике преподавания военных дисциплин влечёт за собой интенсификацию мышления, обеспечивает высокую активность учебно-познавательной (коммуникативной, творческой) деятельности, позитивное отношение

курсантов к предмету усвоения, формирует готовность офицерских кадров к самостоятельным действиям в условиях новизны, помогает развитию внимания и способности его переключения на другие явления по мере необходимости.

В заключении хотелось бы добавить, что в соответствии с постановлением президента с апреля 2021 года Военно-технический институт Национальной гвардии преобразован в Университет общественной безопасности Республики Узбекистан. В данном университете идёт активная работа по совершенствованию системы подготовки высококвалифицированных военных кадров, беззаветно преданных Родине.

#### Литература

1. Джумашев А.Н., Шаюсупова Л.Р. Анализ системы социально-педагогической работы с личным составом частей и подразделений в армии США// Материалы научно-практической конференции “Бўлинмалар кундалик фаолияти самарадорлигини оширишда маънавий-маърифий ишларнинг ўрни ва аҳамияти”. Т., ЎзР МГ ҲТИ, 2019. С.252.

2. Закон Республики Узбекистан от 9 января 2018 года № ЗРУ-458 «Об Оборонной доктрине Республики Узбекистан»// Национальная база данных законодательства, 10.01.2018 г., Ст. 30

3. Интернет ресурс: <https://president.uz>. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на заседании Совета безопасности в расширенном составе 11.01.2018 г. (дата обращения: 13.01.2022)

4. Интернет ресурс: <https://qomus.info>. ONLAYN ENSIKLOPEDIYA (дата обращения: 13.01.2022)

**ИНТЕНСИВ ПАКАНА ОЛМА ДАРАХТЛАРНИ ЎСИШ,  
РИВОЖЛАНИШ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИНИ НАВ-ПАЙВАНДТАГ  
КОМБИНАЦИЯСИ ВА КЎЧАТ ҚАЛИНЛИГИГА БОҒЛИҚЛИГИ**

**Ганиева Феруза Амриллоевна,**

ўқитувчи. Бухоро давлат университети. +998919790430

**Юнусов Рустам,** к/х.ф.н, доцент.

Бухоро давлат университети. +998914080913

Ўзбекистонда мева етиштиришни кўпайтиришда мевачилик соҳасини интенсивлаштиришда янги замонавий инновацион ва тажамкор технологияларни қўллаш, мева турларини ҳар томонлама биологик ва агртехнологик хусусиятларини ўрганиш, ишлаб чиқариш жараёнларини интеграция қилиш, янги барпо этиладиган интенсив боғларни ҳосилдорлигини кўпайтириш ва сифатини яхшилаш, суғориш ва ўғитлаш тизимларидан тўлиқ ва унумли фойдаланишдан иборатдир.

Замонавий интенсив боғларни барпо қилишда асосий омиллардан бири бу вируссиз тоза, маҳсулдор ўрта ўсувчи ва суст ўсувчи пайвандтагларни, турли хил пакана нав-пайвандтагларни танлаб олиш ва парваришлаш технологияларини замонавий яъни инновацион усулларни кенг жорий қилиш бу давр талаби ҳисобланади. Бунда сермаҳсул нав-пайвандтагларнинг биологик ва морфологик тупроқ-иқлим шароитида парваришлаш технологияларни ҳисобга олиш лозим [1,2,3,4].

Илмий тадқиқот ишлари 2020-2021 йиллар давомида Бухоро вилояти, Бухоро тумани “Боғикалон” худудида жойлашган МЧЖ “СиёвушАгро” боғдорчилик фермер хўжалигида ўтказилди. Бухоро вилоятининг иқлими кескин континентал ҳисобланади ва бир йилда ўртача 125-175мм ёғингарчилик бўлади. Ёғингарчилик асосан баҳор фасли бошида, кузнинг охирида ва қишда кузатилади. Ҳавонинг ўртача ҳарорати 26-30<sup>0</sup>С ни ташкил қилади. Қиши совуқ ва қуруқ, январда ўртача -1<sup>0</sup>Сдан -13<sup>0</sup>С гача бўлади. Ўртача ҳавонинг нисбий намлиги 40-60%ни ташкил этади. Мазкур МЧЖ “СиёвушАгро” боғдорчилик фермер хўжалигида агрокимёвий тадқиқот

натижалари бўйича яйловли, эски ва янги суғориладиган майдонларда чириндининг миқдори 0.8-1.2% га тенг. Фосфорнинг миқдори 0.11-0.18%га ва алмашинувчан калий миқдори 1.5-3.0%ни ташкил қилади.

Қишлоқ хўжалиги экинларига, жумладан мевали дарахтларнинг ўсиш ва ривожланиши даврида 6-21 м/сек тезликда эсадиган шамоллар бир йилда фақат 142 кун давом этади.

Шунингдек, юқорида келтирилган Бухоро тумани МЧЖ “СиёвушАгро” боғдорчилик фермер хўжалиги тупроқ-иқлим шароити интенсив олма дарахтларнинг, жумладан пакана вегетатив пайвандтагларга уланган пакана вегетатив пайвандтагларга уланган серҳосил олма навларининг ўсиши, ривожланиши ҳамда муттасил мўл ва сифатли ҳосил олиш барча талаб этадиган имкониятлар мавжуд.

Тажриба олиб борилган вегетатив пайвандтагларга уланган пакана олма боғларини тупроғи қадимдан суғориладиган аллювиал тупроқ типига мансубдир. Сизот сувлари 0.8-1.5 м чуқурликда жойлашган.

Тадқиқот объекти бу биологик хусусиятлари билан бир-биридан фарк қиладиган пакана олма навлари ва пайвандтаг комбинациялари ҳамда кўчат қалинлиги ҳисобланади. Ўрганилган навлари – Голдспур, пайвандтаги секин ўсувчи М-9 пайвандтаги, Голден Делишес навини ММ-106 ўрта ўсувчи пайвандтагга уланган. Олма кўчатлари 2020 йилда ўтказилган бўлиб, унда куйидаги схемалар 4.0x1.2 м, 4.0x1.4 м, 4.0x1.6 м, 4.0x1.8 м, 4.0x2.0 м ҳамда 3.0x1.0 м, 3.0x1.5 м, 3.0x2.0 м тартибда жойлашган олма дарахт шох-шаббаларига ярим сийраклаштирилган ва шпindel буш усулида шакл берилган. Пакана олма боғлари инновацион технологик омиллари асосида парваришlash қилинади, жумладан суғориш ва ўғитlash томчилатиб суғориш усулида қўлланилади. Бу усулни афзаллиги шундан иборатки бу суғориш усулида сув томчилари ўғит билан биргаликда зарурий ўсув нуктасига берилади ва сув сарфи 2-3 мартаба тежалади.

Тадқиқот натижалари интенсив пакана олма боғларида энг мақбул нав-пайвандтаглар комбинацияларини ва кўчат қалинлигини танлаш, уларни

морфо-биологик хусусиятлари ўсиш ва ҳосил бериш қонуниятлари пакана интенсив олма навлари Голдспур ва Голден Делишес навларни зичроқ, яъни 4.0-1.2 м ва 4.0x1.4м тартибда экилганда қўлга киритилган. Олиб борилган тадқиқотлар олма дарахтини секин ўсувчи пакана пайвандтагларга уланганда – Голдспур ва Голден Делишес навларида 2020йилда пастки қисмга жойлашганда ёруғлик 66%ни, ўртанги қисмида 56% ва юқори эса 72%ни ташкил қилди. 2021йилда эса дарахтларни оптимал ўсиш натижасида ёруғлик миқдорини 2-4% гача камайгани аниқланди.

Интенсив олма дарахтларини комплекс зарарли организмлардан ҳимоя қилиш ишлари Бухоро тумани МЧЖ “СиёвушАгро” боғдорчилик фермер хўжалигида фаолият кўрсатаётган агроном ва назоратчилари билан биргаликда агротехник, кураш чора тадбирлари қатъий назорат остида қўлланилмоқда.

Ўрганилаётган икки йиллик пакана олма навларини секин ўсувчи пайвандтагларга уланиши сабабли дарахтларни ўсиш ва ҳосил элементларининг шаклланиш фитометрик кўрсаткичларининг яхшиланишига ва пировард натижада ҳар бир пакана олма дарахтидан иккинчи йилда 0.2-2.0кг гача сифатли ҳосил олинди.

Шунингдек, ўтказилган тажриба натижалари шундан далолат берадики, интенсив пакана олма дарахтларига мос шакл бериш, замонавий инновацион технология асосида тажамкор томчилатиб суғориш усулларини қўллаш мақбул секин ўсувчи нав-пайвандтаг комбинацияларни танлаш, комплекс зарарли организмлардан ўз вақтида ҳимоялаш, дарахтларни мақбул кўчат калинлигида ўтказиш ва парваришлаш каби агротехнологик омилларни қўллаш мева етиштиришни самарадорлигини оширишга келтиради.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Ganiyeva Feruza Amrillojevna, Yunusov Rustam. THE GROWTH, DEVELOPMENT AND YIELD OF APPLE TREES IN INTENSIVE FRUIT ORCHARDS ARE HARDWOOD CUTTING COMBINATIONS AND THEIR DEPENDENCE ON THE THICKNESS OF SEEDLINGS. *Nat. Volatiles & Essent.*

*Oils*, <https://www.nveo.org/index.php/journal/article/view/2663> 2021; 8(5): 9591-9595.

2. Ganieva F.A., Yunusov R. Studying the different formations of apple trees in intensive orchards. European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 4, April 2021, ISSN: 2660-5643

3. Ganieva F.A, Yunusov R., ECONOMICAL INNOVATIVE BASIS FOR THE CARE OF INTENSIVE STUNTED APPLE VARIETIES. AJMR. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) <https://www.tarj.in> Vol 10, Issue 6, June 2021.

4. Yunusov R; Nazarova S.M; Ganieva F.A; Ataeva Z. A. Influence of cultivar combinations and seedling thickness on the formation of phytometric indicators and productivity of pear trees in intensive orchards. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. <https://saarj.com/wp-content/uploads/paper/ACADEMICIA/2021/FULL-PDF/ACADEMICIA-SEPTEMBER-2021/9.58,%20Yunusov%20R.pdf> Vol. 11, Issue 9, September 2021.

## ЛИНДА ХАТЧЕОННИНГ ПОСТМОДЕРНИСТИК ТАРИХИЙ МЕТАПРОЗАГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАРИ

Хажиева Феруза Мэлсовна, PhD, доцент

Бухоро давлат университети

*Аннотация:* Мақолада постмодернистик адабиётда тарихий метапрозани тадқиқ қилган канадалик академик Линда Хатчеоннинг соҳага оид қараашлари шарҳлаб берилган.

*Калит сўзлар:* постмодернизм, тарихий метапроза, биографик роман.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ЛИНДЫ ХАТЧЕОН НА ПОСТМОДЕРНИСТИЧЕСКУЮ ИСТОРИЧЕСКУЮ МЕТАПРОЗУ

Хажиева Феруза Мэлсовна, PhD, доцент

Бухарский государственный университет

*Аннотация:* В статье комментируются взгляды Линды Хатчеон, канадского академика, изучавшего историческую метапрозу в постмодернистской литературе.

*Ключевые слова:* постмодернизм, историческая метапроза, биографический роман.

## LINDA HUTCHEON'S THEORETICAL VIEWS ON A POST- MODERN HISTORICAL METAFICTION

Khajieva Feruza Melsovna, PhD, Associate professor

Bukhara State University

*Resume:* The article comments on the views of Linda Hutcheon, a Canadian academic who has studied the biographical novel in postmodern literature.

*Key words:* postmodernism, historical metafiction, biographical novel.

Канадалик академик, постмодерн адабиёти тарихи ва назарияси соҳасида кўплаб изланишлар олиб борган илк олимлардан Линда Хатчеон (Linda Hutcheon) “A Poetics of Postmodernism. History, Theory, Fiction” [1, 283] номли китобида тарихий ва биографик роман жанрини комплекс тадқиқ қилиб, алоҳида “Historiographic Metafiction: “The Pastime of Past Time”” деб номланган бобда XX асрда яратилган тарихий метапрозани назарий ўрганиб

чиққан. Олима Жон Белвиллнинг (John Banville) “Doctor Copernicus” (1976), Криста Вульфнинг (Christa Wolf) “No Place on Earth” (1979), Ян Уотсоннинг (Ian Watson) “Chekhov’s Journey” (1890), Эдгар Лоуренсе Докторовнинг (Edgar Lawrence Doctorow) “Book of Daniel” (1971) каби қатор постмодерн услубида яратилган тарихий ва биографик асарларни тадқиқ қилар экан, уларни анъанавий тарихий романга қарама-қарши қўяди (Венгриялик Марксист олим Дьёрдь Лукачнинг тарихий роман назариясига оид фикларини (“The Historical Novel” (1937) таҳлил қилган ҳолда) ва асарлардаги метапроза ҳодисасини кузатади. Ҳатчеоннинг фикрича, замонавий постмодернистик тарихий метапроза қуйидаги уч жиҳатни ўзида мужассам этади. Биз ўз талқинимизда Линда Ҳатчеоннинг “historiographic metafiction” терминини “тарихий метапроза” шаклида қабул қилиб, унинг остида тарихий ва биографик метапрозани назарда тутамиз. Чунки монографияда Ҳатчеон тарихий ҳамда биографик асарларни таҳлилга тортган.

А. Ҳатчеоннинг фикрича, анъанавий тарихий романда “типиклаштириш” ҳодисасига катта аҳамият берилган бўлса, тарихий метапрозада бадий “тип” еки қаҳрамонни типиклаштириш ҳодисаси кузатилмайди. Қаҳрамонлар эксцентрик, чегараланган, ва перифериал фигуралар. Ҳатто реал тарихий шахслар (биографик роман – Ф.Х.) ҳам бошқача, махсуслаштирилган ва эксцентрик мавқега эга дея, тарихий образлардаги ноанъанавийликни таъкидлайди. “...it is clear that the protagonists of historiographic metafiction are anything but proper types: they are the ex-centrics, the marginalized, the peripheral figures of fictional history... Even the historical personages take on different, particularized, and ultimately ex-centric status...” [1,113-114] Олиманинг ушбу фикрлари постмодернистик адабиётда тарихий метапроза қаҳрамони жанр табиатига хос бўлган қаҳрамонлардаги “типикликни”, универсалликни йўқотиб, уларни индивидуал, ўзига хос образлар сифатида ифодалайди. Бизнингча, Ҳатчеон бу ўринда постмодерн адабиётдан олдин яратилган асарлардаги қаҳрамонларга хос давр ижтимоий

ва инсоний хусусиятларини гавдалантира оладиган даҳолик, буюклик каби фазилатларни мужассамлаштирган “тип”ни назарда тутган.

Ҳатчеон тарихий метапрозада муаллиф тарихий-биографик ҳақиқатга субъектив муносабат билдиради. Далиллар езувчи наздида қайта “фильтрланади” ва унинг призмаси орқали асарга солинади. “Even documents are selected as a function of a certain problem or point of view”. [1,122] (Ҳатто ҳужжатлар маълум муаммо еки муносабатни ифодалаш учун танлади.) Олиманинг фикрича, “*Historiographic metafiction espouses a postmodern ideology of plurality and recognition of difference; “type” has little function here, except as something to be ironically undercut. There is no sense of cultural universality.*” [1,114] (Тарихий метапроза постмодерн адабиётидаги фикрлар хилма-хиллиги мафкурасини олдинга суриб, тафовутни тан олиншини таъкидлайди. Бундай асарларда адабий “тип” тушунчасининг вазифаси тор бўлиб, киноя билан тасвирланган. Уларда маданий универсаллик ҳисси йўқолган.)

Б. Линда Ҳатчеоннинг таъкидлашича, тарихий метапроза ҳақиқат билан ўйнашиб, уни елғонлаштиради. Бундай асарларда, тарихий ёзувлардаги мнемоник муваффақиятсизликларга урғу бериш мақсадида, ҳақиқат қастдан фальсификация қилинади (*certain known historical details are deliberately falsified in order to foreground the possible mnemonic failures of recorded history (...) Historiographic metafiction acknowledges the paradox of the reality of the past but its textualized accessibility to us today*). [1,114] Шунингдек, олима тарихий метапроза ўтмишнинг парадоксаллигини тан олиб, уни бугунги кун нуктаи назарида, тушунарли матнда ўзгача ифода этади, деган хулосага келади.

В. Ҳатчеоннинг таъкидлашича, анъанавий тарихий романларда тарихий шахслар ёрдамида бадий (тўқима) олам аутентификация қилинади – ҳақиқийлаштирилади. Прототип тарихий факт ва тўқима орасидаги боғланишларни яширишга, силлиқлаштиришга ердам беради, тарихий ҳақиқат ва бадий тўқимани синтезлаштириб, бадий асарда ҳаққонийлик қиёфасини олишга ердам беради. “*The metafictional self-reflexivity of postmodern novels*

*prevents any such subterfuge, and poses that ontological join as a problem: how do we know the past? What do (what can) we know of it now?"*[1,115] Тарихий метапроза эса, бундай айёрликни олдини олиб, асарда муаллиф иштироки ердамида “Тарихни биз қай даражада биламиз? Ҳозирда биз бу ҳақида нимани биламиз?” – деган саволларни ўртага ташлаб, уларга жавоб топишга уринади. Олиманинг таъкидлашича, метапроза тарихий факт ва тўқима орасидаги онтологик боғланишларни яширмайди, балки уларни олдинга олиб чиқади. Демак, метапроза имкониятлари тарих ва бугунни ажратилган ҳолда кузатиб, унинг ердамида бугунги даврда яшаётган муаллифни асар тўқимасига олиб кириб, воқеаларга ўз позициясидан туриб муносабат билдиришга имкон яратади. Ўтмиш ва бугун “мета” ердамида бирикиб, асарда янги даврлараро кўприк ҳосил бўлади. Бугунги кун нуқтаи назарида тарихий шахс ҳаётида содир бўлган воқеаларга баҳо берилади. Постмодернизмга хос муносабат: киноя, аллюзия, сарказм/истеҳзо каби модаллик унсурлари бадиий асар тилида ўз ифодасини топади.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Hutcheon, Linda . A Poetics of Postmodernism. History, Theory, Fiction. – New York, London: Routledge, 2004. – 283 p.
2. Khajieva, Feruza Associate professor (PhD), Department of English Literature (2020) "GENESIS AND DEVELOPMENT OF STYLISTIC DEVICES CLASSIFICATIONS," // Philology Matters: Vol. 2020 : Iss. 3 , Article 6. DOI: 10. 36078/987654447 // Available at: <https://uzjournals.edu.uz/philolm/vol2020/iss3/6>
3. Feruza Melsovna Khajieva, Kendjayeva Gulrukh Fatillovovna STUDY OF STYLISTIC LEXICOLOGY (2019) // TEST Engineering and Management, USA, 2019. – P. 4162-4169. <http://www.testmagzine.biz/index.php/testmagzine/article/view/567/507>
4. Xajiyeva, Feruza. "ЛАЙЛА ЛАЛАМИНИНГ “THE MOOR’S ACCOUNT” РОМАНИДА ФОНЕТИК СТИЛИСТИК ВОСИТАЛАР ТАҲЛИЛИ." *Журнал иностранных языков и лингвистики* 3.8 (2021).

5. Khajieva, Feruza Melsovna. "Theoretical aspects of the language learned (Stylistics)." *Бухоро: Дурдона* (2020).

## ЕВРОПА ТАНҚИДЧИЛИГИДА ПОСТМОДЕРНИСТИК БИОГРАФИК РОМАН СОҲАСИГА ОИД ҚАРАШЛАР

Хажиева Феруза Мэлсовна, PhD, доцент

Бухоро давлат университети

*Аннотация:* Мақолада Европа адабиётшунослигида биографик роман жанри хусусиятларига оид Англия ва Сербия олимлари қарашлари ўрганилган бўлиб, постмодернизм даврида жанр трансформацияси ҳодисаси еритиб берилган.

*Калит сўзлар:* постмодернизм, интертекстуаллик, вендрилокизм.

## ИЗУЧЕНИЕ ПОСТМОДЕРНИСТИЧЕСКОГО БИОГРАФИЧЕСКОГО РОМАНА В ЕВРОПЕЙСКОЙ КРИТИКЕ

Хажиева Феруза Мэлсовна, PhD, доцент

Бухарский государственнқй университет

*Аннотация:* В статье исследуются взгляды британских и сербских ученых на особенности жанра биографического романа в европейской литературе и раскрывается феномен жанровой трансформации в период постмодерна.

*Ключевые слова:* постмодернизм, интертекстуальность, чревовещание.

## STUDY OF POST-MODERN BIOGRAPHICAL NOVEL IN EUROPEAN CRITICISM

Khajieva Feruza Melsovna, PhD, Associate professor

Bukhara State University

*Resume:* The article examines the views of British and Serbian scholars on the peculiarities of the genre of the biographical novel in European literature and reveals the phenomenon of genre transformation in the postmodern period.

*Key words:* postmodernism, intertextuality, ventriloquism.

Англиянинг Лидс (Leeds) университетида “(Post)Modernist Biofictions: The Literary Afterlives of Henry James, Virginia Woolf, and Sylvia Plath” номли фалсафа доктори даражасини олиш учун тайёрланган диссертациясида

**Бетани Лейн** (Bethany Layne) Ҳенри Жеймс, Виржиния Вульф, Сильвия Плат каби ёзувчилар ҳаётига бағишларган ўн олти асарда постмодернизм хусусиятларини тадқиқ этиб, замонавий биофикцияда бу жиҳатларни кўйидаги муаммоларни тадқиқ этиш орқали ёритиб берган. *“I have three main avenues of exploration: the first, to consider how biofiction might serve to introduce or to recall its subjects’ texts; the second, to ask whether biofiction might contribute to scholarly discourse as well as borrowing from the same; and the third, to address biofiction’s intervention into postmodernist debates about subjectivity.”* [1,389] Дастлаб, тадқиқотчи биографик асарларда биографик субъект матнининг ундаги инъикосини таҳлил қилган. Биографик романлардаги интертекстуал жиҳатлар ёритиб берилган. Иккинчидан, тадқиқотчи биофикция илмий дискурс (мунозарага)дан нималарни ўзига қабул қилиб унга қай даражада ўз ҳиссасини қўша олишини тадқиқ қилган ва учинчидан, биофикциянинг субъективлик тўғрисидаги постмодернистик мунозараларга ҳиссасини кўриб чиққан. Тадқиқот натижасида Бетани Лейн кўйидаги хулосага келган.

А. Постмодерн асарларда биограф ўз қаҳрамони яратмаларини чуқур ўрганганлигидан гувоҳлик берувчи интертекстуал воситалар “quotation, plagiarism, and, most frequently, allusion” [1,283] (цитата, плагиат ва аллюзия) ердамида гипотекст/гипертекст муносабатлари вужудга келтиради. Постмодерн биографик романлар гипотекст (бирламчи матн)/гипертекст (иккиламчи, интертекстуал воситалар ердамида яратилган матн) муносабатлари натижасида уларни ўқиган китобхон биографик қаҳрамон асарларини (гипотекстни) ўқишни хоҳлайди.

Б. Бетани Лейн кузатишича, ҳар қандай муаллиф бадий асар яратишда бирламчи дискурсни яратади. Бадий асарни таҳлил қилган мунаққидлар иккиламчи дискурсни ҳосил қилади. Лейннинг фикрича, биографик роман муаллифи мана шу икки дискурс оралиғида ўз асарини яратади. *‘Novelists wrote novels and critics criticised them’, the ‘second-order discourse’ of criticism relying for its existence on the ‘first order discourse’ of fiction, poststructuralist theory radically troubled the boundary between the two discourses’.* [1,7] Шу

